viloyat maktabgacha va maktab ta'limi tizimida inson resurslari bilan ishlash sohasini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollari monitoring va tahlil qiladi hamda ushbu sohadagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

boshqarma, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, idoraviy mansub tashkilot va muassasalar tuzilmasi bo'yicha lavozim yo'riqnomalarini tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda ishlab chiqilishini tashkil etadi;

kadrlarning mehnat salohiyatini imkoni bo'richa to'liq ishga solish asosida boshqarma oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda har bir xodimning shaxsiy hissasini oshirish bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda choralar ko'radi;

muntazam ravishda istiqbolli kadrlarni tanlash, seleksiya qilish ishlarini olib boradi va ularni kadrlar zaxirasiga kiritadi;

kadrlar xizmati sohasidagi zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining hududiy filiali bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

inson resurslarini rivojlantirish, istiqbolli kadrlar seleksiyasining samarali mexanizmlarini joriy etish, kadrlarni seleksiya qilish, saralab olish va joy-joyiga qo'yishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlaydi;

zaxiraga olingan nomzodlarni maxsus tayyorlash bo'yicha dasturlar asosida bosqichma-bosqich mo'ljallangan lavozimlarga tayyorlab borish ishlarini muvofiqlashtiradi;

maktabgacha va maktab ta'limi vaziri nomenklaturasiga kiritilgan lavozimlarga o'rnatilgan tartibda tavsiya etilayotgan nomzodlarning hujjatlarini vazirlikka taqdim etadi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kadrlarni saralab olish va joy-joyiga qo'yishning shaffof va adolatli tartibi asosida bo'sh ish o'rinlariga (vakant) lavozimlarga tanlov o'tkazilishini ta'minlaydi;

kasbga oid sifatleri va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni tegishli lavozimlarga qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini amaliyotga joriy qilinishi yuzasidan boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritadi;

boshqarma boshlig‘i nomenklaturasiga kiruvchi vakant lavozimlarni egallash bo‘yicha tanlovlarni tashkillashtiradi, ochiq mustaqil tanlovlarni o‘tkazish komissiyasining ishchi organi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yadi, kadrlar tanlashda shaffoflikni ta‘minlaydi;

vakant lavozimlarga nomzodlarning barcha fazilatleri va ustunliklarini obyektiv baholash imkonini beradigan ochiq mustaqil saralab olish asosida ularni ishga qabul qilish yuzasidan boshqarma boshlig‘iga takliflar kiritadi;

xodimlarda yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo‘lmaydigan munosabatni shakllantirish bo‘yicha vakolati doirasida ishlarni amalga oshiradi;

boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari va tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari bilan birgalikda eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida boshqarma xodimlari faoliyatining natijadorligini baholanishini tashkil etadi, xodimlar faoliyati samaradorligining o‘lchanadigan indikatorlari (eng muhim ko‘rsatkichlar) ko‘rsatgan natijalar tahlilining xolisligi va haqqoniyligini nazorat qilishda hamda indikatorlar natijalarini tahlil qilishda ishtirok etadi;

boshqarma xodimlari tomonidan mehnat intizomiga rioya etilishini nazorat qilib boradi;

xorijda yashayotgan vatandoshlar orasidan malakali va yuqori malakali mutaxassislarni ishga jalb etish borasida boshqarma boshlig‘iga takliflar kiritadi.

kadrlar tanlashda, ularning faoliyatini baholash va ularni mukofotlash borasida shaffoflikni ta‘minlaydi, shu asosida ularga belgilanadigan ustama va mukofotlar miqdori bo‘yicha tegishli boshliq o‘rinbosarlari bilan kelishilgan holda boshqarma boshlig‘iga takliflar kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri buyrug‘i bilan tayinlanadigan rahbar kadrlar bilan ishlash, tasarrufdagi rahbar kadrlarni hisobga olish, tanlash, lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish bo‘yicha takliflarni boshqarma boshlig‘iga kiritadi;

davlat va tarmoq mukofotlariga tavsiya etish bo‘yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari va idoraviy mansub tashkilotlar takliflarini o‘rganish uchun tegishli komissiyaga taqdim etadi, ta‘lim-tarbiya jarayoniga o‘zining ijobiy hissasini qo‘shayotgan xodimlarni taqdirlash bo‘yicha komissiya xulosasi asosida boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritadi, nomzodlarning tegishli hujjatlarini o‘rnatilgan tartibda vazirlikka taqdim etadi;

ta‘lim sohasini rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan xodimlarni boshqarma boshlig‘ining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlash ishlarini tashkil etadi;

boshqarmada xodimlar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish va ularning personallashtirilgan hisobi yuritilishini, shuningdek, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari va tasarruf tashkilotlari kadrlarining hujjatlari almashinuvini tashkillashtiradi;

boshqarmada xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish, ularga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarni “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksida (keyingi o‘rinlarda – “YAMMT” IDAK) va HRM.ARGOS.UZ elektron dasturiga ro‘yxatdan o‘tkazilishi, xodimlarning elektron mehnat daftarchasiga yozuvlarni kiritilishi va tasdiqlanishini ta‘minlaydi;

boshqarma xodimlari va boshqarma boshlig‘i nomenklaturasiga kiruvchi lavozimdagi xodimlarning personallashtirilgan hisobi, shu jumladan elektron ma‘lumotlar bazasi, ularning shaxsiy yig‘majildi yuritilishini ta‘minlaydi, shuningdek, xodimlar shaxsiy ma‘lumotlarining xavfsizligini ta‘minlash choralari ko‘radi;

mehnat intizomini mustahkamlash, kadrlar qo'nimsizligi va ish vaqtini yo'qotishni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda, ularning bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etadi;

boshqarma va uning tizimida mehnat qonunchiligi buzilishlarini, shuningdek, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarni bartaraf etish bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritadi va bunday choralarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati, vazirlik hamda boshqarmaning hujjatlari ijrosini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlanmaganligi, ular ijrosini tashkil etishda nazoratning past darajasi sabablari tahlil qilinishini va bunga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga intizomiy jazo choralari ko'rilishi bo'yicha asoslangan takliflarni (zarur hollarda boshliq o'rinbosarlari va tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda) boshqarma boshlig'iga kiritib boradi;

kadrlar tarkibiga oid hisobotlarni to'planishi, tahlil qilinishi, vazirlikka va boshqa vakolatli yuqori turuvchi organlarga taqdim qilinishini ta'minlaydi;

ta'lim muassasalarining pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik holati o'rganilishi va tahlil qilinishi, ulardagi pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj aniqlanishini tashkillashtiradi;

pedagog kadrlar yetishmovchiligi bo'yicha tahlillar asosida qabul kvotalarini shakllantirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqadi va o'rnatilgan tartibda vazirlikka kiritadi;

boshqarma tizimidagi quyi turuvchi bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, shuningdek, ularning o'zaro hamjihatligini ta'minlaydi va uslubiy yordam ko'rsatadi, kadrlar masalasi bo'yicha o'quv-seminarlar tashkil etadi;

taalluqliligi bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, murojaatlarda ko'tarilgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha tuman (shahar) bo'limlari va idoraviy mansub tashkilotlarga tegishli takliflar kiritadi, zarur hollarda mazkur ma'lumotlarni muhokama qilish uchun boshqarma rahbariyatiga taqdim etadi;

bo'limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun boshqarma boshlig'iga kiritadi.

bo'limning faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, bo'lim faoliyatiga oid muhim masalalar haqida boshqarma boshlig'iga muntazam ravishda axborot beradi.

5. Bo'lim xodimlari bilan birgalikda kadrlar masalasi bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi va boshqarma boshlig'iga kiritadi;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish, shuningdek rahbarlik qiladigan tarkibiy bo'linma xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Bo'lim boshlig'ining huquqlari**

6. Bo'lim boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta‘tillari berish orqali ta‘minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta‘minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta‘minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi va ma‘naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish.

bo‘lim faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo‘ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

bo‘lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo‘limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

bo‘lim zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishilgan holda boshqarma tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo‘limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va

malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida bo'lim xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Bo'lim boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bo'lim boshlig'ining javobgarligi**

8. Bo'lim boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Bo'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Bo'limda hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Bo'lim boshlig'i imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Bo'lim boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

## **Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisining lavozim yo‘riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi (bundan buyon matnda –bosh mutaxassis)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh mutaxassis Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh mutaxassis bo‘lim boshlig‘iga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning Hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Bosh mutaxassisning lavozim majburiyatlari**

4. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

muntazam ravishda istiqbolli kadrlarni tanlash, seleksiya qilish ishlarini olib borilishi va ularni kadrlar zaxirasiga kiritilishi yuzasidan bo‘lim boshlig‘iga takliflar kiritadi;

kadrlar xizmati sohasidagi zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, vakant lavozimlarga tanlovlar o‘tkazilishida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining hududiy filiali bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kadrlarni saralab olish va joy-joyiga qo‘yishning shaffof va adolatli tartibi asosida bo‘sh ish o‘rinlariga (vakant) lavozimlarga tanlov o‘tkazilishini tashkil etadi va ushbu yo‘nalishda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlariga amaliy yordam ko‘rsatadi;

boshqarma boshlig‘i nomenklaturasiga kiruvchi vakant lavozimlarni egallash bo‘yicha tanlovlarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari tashkillashtiradi, ochiq mustaqil tanlovlarni o‘tkazish komissiyasining ishchi organi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yadi, tanlov jarayonlarining belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

boshqarmada mavjud vakant lavozimlar haqida vacancy.argos.uz portali orqali e‘lon beradi;

vakant lavozimlarga vacancy.argos.uz portali orqali ariza bergan nomzodlarning vakant lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligi o‘rganilishini tashkillashtiradi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining hududiy filiallari bilan kelishilgan holda test sinovi o‘tkazadi, nomzodlar shaxsiy kabinetiga har bir bosqich natijalarini kiritadi.

tanlov komissiyasi raisi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hududiy filiali bilan kelishilgan holda vakant lavozimga nomzodlar uchun suhbat kunini belgilanishi va suhbat o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

suhbat natijalari yuzasidan Tanlov komissiyasi bayonnomasi loyihasini ishlab chiqadi, komissiya a‘zolari bilan kelishilgan holda tasdiqlash uchun raisga kiritadi;

tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan bayonnomani rasmiylashtirib, tanlov natijalari haqida vacancy.argos.uz portali orqali nomzodlarga ma'lum qiladi va portalga joylashtiradi.

5. Boshqarma va tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining shtat birligi, xodimlar zaxira tarkibi haqida choraklik statistik hisobotlarni bo'lim boshlig'iga taqdim etadi;

davlat boshqaruvi akademiyasining hududiy filiallari va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda maktabgacha va maktab ta'limi boshqaruvi organlari rahbar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkillashtiradi;

davlat va tarmoq mukofotlariga tavsiya etish bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va idoraviy mansub tashkilotlar takliflarini o'rganish uchun tegishli komissiyaga taqdim etadi, nomzodlarning tegishli hujjatlarini o'rnatilgan tartibda tayyorlaydi;

ta'lim sohasini rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xodimlarni boshqarma boshlig'ining faxriy yorlig'i bilan taqdirlash yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtiradi;

taalluqliligi bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, natijasi yuzasidan o'rnatilgan tartibda javob xatlari tayyorlaydi;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Bosh mutaxassisning huquqlari**

6. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;



davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy zararining kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

bo'lim faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo'ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

bo'lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat boshqaruv organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

bo'lim zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida bo'lim xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Bosh mutaxassisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bosh mutaxassisning javobgarligi**

8. Bosh mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Bo‘lim faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

11. Bo‘limda hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta‘minlashga shaxsan javob beradi.

12. Bosh mutaxassis imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Bosh mutaxassis mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisining lavozim yo‘riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi (bundan buyon matnda – yetakchi mutaxassis)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Yetakchi mutaxassis Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Yetakchi mutaxassis bo‘lim boshlig‘iga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Yetakchi mutaxassis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning Hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi;

## **2-bob. Bosh mutaxassisning lavozim majburiyatlari**

4. Yetakchi mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

boshqarma, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari, idoraviy mansub tashkilot va muassasalar tuzilmasi bo‘yicha lavozim yo‘riqnomalarini tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda ishlab chiqilishini ta‘minlaydi;

boshqarmada xodimlar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish va ularning personallashtirilgan hisobi yuritilishini, shuningdek, tuman (shahar) bo‘limlari va tasarruf tashkilotlari kadrlarining hujjatlari almashinuvini tashkillashtiradi;

boshqarmada xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish, ularga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarni “YAMMT” IDAKda va HRM.ARGOS.UZ elektron dasturiga ro‘yxatdan o‘tkazilishini, xodimlarning elektron mehnat daftarchasiga yozuvlarni kiritilishi va tasdiqlanishini ta‘minlaydi;

boshqarma xodimlari va boshqarma boshlig‘i nomenklaturasiga kiruvchi lavozimdagi xodimlarning personallashtirilgan hisobi, shu jumladan elektron ma‘lumotlar bazasi, ularning shaxsiy yig‘majildi yuritilishini ta‘minlaydi, shuningdek, xodimlar shaxsiy ma‘lumotlarining xavfsizligini ta‘minlash choralarini ko‘radi;

ta‘lim muassasalarining pedagog kadrlar bilan ta‘minlanganlik holati o‘rganilishi va tahlil qilinishi, ulardagi pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj aniqlanishini tashkillashtiradi;

pedagog kadrlar yetishmovchiligi bo‘yicha tahlillar asosida qabul kvotalarini shakllantirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqadi va o‘rnatilgan tartibda vazirlikka kiritadi;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari pedagogik xodimlarining tarkibi bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni fanlar, tumanlar kesimida yig‘adi, umumlashtiradi va vazirlikka taqdim qilinishini ta‘minlaydi;

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining bandligi, kadrlar qo‘nimsizligi yuzasidan ma‘lumotlarni umumlashtiradi va vazirlikka taqdim qiladi;

boshqarma xodimlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari va viloyat tashkilotlari rahbarlari uchun xizmat guvohnomalari tayyorlaydi hamda ularni rasmiylashtirish uchun taqdim etadi;

boshqarmaning xizmat guvohnomalari blankalari hisobini yuritadi va ularni ro'yxatga oladi, ushbu hujjatlarni yo'q qilish to'g'risida dalolatnomalar tayyorlaydi;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash.

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Yetakchi mutaxassisning huquqlari**

6. Yetakchi mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

bo'lim faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo'ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

bo'lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

bo'lim zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida bo'lim xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Yetakchi mutaxassisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Yetakchi mutaxassisning javobgarligi**

8. Yetakchi mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Bo'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Bo'limda hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Yetakchi mutaxassis imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Yetakchi mutaxassis mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Yuridik xizmat ko'rsatish sho'basini boshlig'ining lavozimi Yo'riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Boshqarma deb yuritiladi) Yuridik xizmat ko'rsatish sho'basini (keyingi o'rinlarda Sho'ba) boshlig'ining lavozimi majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba boshlig'i belgilangan tartibda Boshqarma boshlig'i buyrug'iga asosan Adliya vazirligining hududiy boshqarmasi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba boshlig'i Boshqarma boshlig'iga bo'ysunadi.

3. Sho'ba boshlig'i lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan, davlat tilini biladigan, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan yangiliklar hamda islohotlardan xabardor, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar va soha yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxslar tayinlanishi mumkin.

4. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarori va Boshqarma boshlig'ilar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2017-yil 1-yanvardagi 250-son qarori talablariga qat'iy amal qilgan holda o'z ishini tashkillashtiradi va olib boradi.

## **2-bob. Sho'ba boshlig'ining lavozim majburiyatlari**

5. Sho'ba faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi hamda berilgan vazifalar va topshiriqlarning bajarilishi uchun xodimning javobgarlik doirasini belgilaydi.

6. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Yuridik bo'limi bilan muvofiqlashtirgan holda Sho'ba ishlarini olib boradi.

7. Yuridik xizmat bilan bog'liq ishlarni qonunchilik hujjatlariga asosan olib boradi.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'rganilishi, belgilangan tartibda javob berilishi uchun javob beradi.

8. Boshqarma tizimidagi muassasa va tashkilotlarda xodimlarning normativ hujjatlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganadi va ularga amaliy yordam beradi.

9. Sho'ba boshlig'i yuridik xizmat va maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga bevosita tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bazasini tayyorlash yuzasidan ishlarga boshchilik qiladi va ushbu vazifaning bajarilishini bevosita nazorat qiladi.

10. Quyidagilar Sho'ba boshlig'i faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

Boshqarmaning huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

Boshqarma xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;

shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, Boshqarmaning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

11. Sho'ba boshlig'i o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) Boshqarmaning huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish sohasida:

a) Boshqarmada, shuningdek tegishli tuzilmalarda qonun buzilishlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

b) Boshqarma rahbariyatiga taqdim qilinadigan buyruqlar, shartnomalar va yuridik tuzilmalardagi boshqa hujjatlar loyihalarini ularning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi hamda ular bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, viza qo'yadi. Bunda loyihalarga Sho'ba boshlig'i tomonidan boshqarmaning boshqa tarkibiy tuzilmalari boshliqlari (xodimlari)dan keyin viza qo'yiladi;

d) jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan boshqarmaning qarorlari yuzasidan xulosalar beradi;

e) mustaqil ravishda yoki boshqa tuzilmalar bilan birgalikda boshqarmaning buyruqlari, shartnomalari va yuridik tuzilmalardagi boshqa hujjatlarini ishlab chiqish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

f) Boshqarmada, shuningdek tegishli tuzilmalarda huquqni qo'llash amaliyotini o'rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va rahbariyatga kiritadi;

g) Boshqarmaning boshqa tuzilmalari bilan birgalikda boshqarma, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalar hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikning buzilishi ko'rsatilgan arizalar, takliflar va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

h) Boshqarmada boshqaruv tizimini takomillashtirish, boshqarma huzuridagi tashkilotlar va muassasalar hamda ularning mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

i) Boshqarmada mehnat haqidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlashda, shu jumladan mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni (mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, jamoa bitimi va boshqalarni) ishlab chiqishda ishtirok etadi, ushbu hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi va huquqiy xulosa beradi;

j) Boshqarma rahbariyatiga davlat organi va tashkiloti faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash ahvoli yuzasidan hisobot taqdim etadi;

k) Boshqarma xodimlarining kasaba uyushmalari va boshqa vakillik organlariga vakolatlarini amalga oshirishda yuridik yordam ko'rsatadi;

3) Boshqarma xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazish sohasida:

a) Boshqarma rahbariyati uchun qonunchilik masalalari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

b) Boshqarma, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalar xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish tadbirlarini tashkil etish to'g'risida takliflar kiritadi, ushbu tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etadi;

d) Boshqarma faoliyatiga tegishli qonunchilikni targ'ib qilish ishlarini amalga oshiradi;

e) zudlik bilan Boshqarma axborot xizmatiga Boshqarma veb-saytiga joylashtirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar kiritadi;

f) Boshqarma xodimlarining murojaatlari bo'yicha ularga boshqarma faoliyatiga tegishli huquqiy hujjatlarni topishga ko'maklashadi, zarur hollarda ularning qoidalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

g) qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlarni, sud amaliyotini, Adliya vazirligining huquqiy ishlarga taalluqli ko'rsatmalarini boshqarma huzuridagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazadi;

4) shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organi va tashkilotning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sohasida:

a) davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek fuqarolar bilan nizolar vujudga kelganda, mustaqil yoki boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radi;

b) boshqa tuzilmalar bilan birgalikda boshqarma tomonidan shartnomalarni tayyorlash va tuzish ishlarida ishtirok etadi, ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi hamda shartnomalar loyihalariga, agar e'tiroz va takliflar bo'lmasa, viza qo'yadi. Bunda loyihalarga Sho'ba boshlig'i tomonidan boshqarmaning boshqa tarkibiy tuzilmalari boshliqlaridan (xodimlaridan) keyin viza qo'yiladi;

d) shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

e) Boshqarma tomonidan tuzilgan shartnomalarni zarur darajada bajarish bo'yicha takliflar kiritadi, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

f) Boshqarmaning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha talabnomalar tayyorlashda va davlat organi va tashkilotiga nisbatan bildirilgan talabnomalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi, Boshqarmada talabnomalar bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

g) tegishli tuzilmalar bilan birgalikda boshqarmaning debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganadi, ularning miqdorini kamaytirish choralari ko'radi;

h) shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da'vo ishlarini olib boradi;

i) Boshqarmaning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashda hamda belgilangan tartibda sud majlislarida ishtirok etadi;

j) mulkni saqlash masalalari bo'yicha huquqiy tuzilmalaridagi hujjatlar loyihalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi va ularni tayyorlashda ishtirok etadi;

k) boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda boshqarmada mulkning talon-taroj qilinishi, kamomad va noishlab chiqarish xarajatlarining kelib chiqishi sabablari va sharoitlarini tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish choralari ko'radi, mulkning talon-taroj qilinishi va kamomad holatlari bo'yicha materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish uchun rasmiylashtiradi;

l) moddiy boyliklar va pul mablag'larini hisobdan chiqarish to'g'risidagi hujjatlar loyihalari, shuningdek qonun buzilishlari va suiiste'mollar aniqlangan auditorlik tekshiruvlari va xatlovdan o'tkazish dalolatnomalari bo'yicha huquqiy xulosalar beradi.

Sho'ba boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

12. Sho'ba boshlig'iga ushbu Yo'riqnomada yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

13. Sho'ba ishining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi.

14. Sho'ba faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, Sho'ba faoliyatiga oid muhim masalalar haqida boshqarma boshlig'iga muntazam ravishda axborot beradi.

15. Sho'ba xodimlarining ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etishlarini nazorat qiladi.



16. Rahbariyat topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi.
17. Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga amal qiladi.
18. Ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qiladi.
19. Mazkur lavozim yo'riqnomasida bayon qilingan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajaradi.

### **3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari**

20. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

Boshqarmaga kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni tanishish, xizmatda foydalanish va ularning tizimlashtirilgan hisobini yuritish uchun birinchi navbatda olish;

Boshqarma, uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalar mansabdor shaxslaridan yuridik xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni olish;

Boshqarma boshlig'i tomonidan chaqiriladigan huquqiy masalalarga tegishli yig'ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;

Boshqarma boshlig'ining topshirig'iga ko'ra yoki tegishli tuzilma rahbarining roziligi bilan ularning xodimlarini normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun, huquqiy ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga jalb qilish;

qonunchilikka zid bo'lgan, qonunchilik texnikasi talablariga javob bermaydigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini ijrochilariga puxta ishlash uchun qaytarish, o'z e'tirozlarini asoslagan holda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida huquqiy xulosalar berish, rahbariyat topshirig'iga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan boshqa tuzilmalar bilan birgalikda ushbu loyihalarni puxta ishlanishida ishtirok etish;

Boshqarma huzuridagi tashkilotlar va muassasalarda boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi masalalarini o'rganish;

Boshqarma, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalarning qonunchilik hujjatlari bajarilishini ta'minlamayotgan yoxud ularni buzayotgan rahbarlari va xodimlarini javobgarlikka tortish haqida rahbariyatga takliflar kiritish;

Boshqarmada, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalarda yoki Boshqarma tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlar, taftishlar va xatlovlarda, shuningdek ularning yakunlari bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish hamda aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan huquqiy xulosalar berish;

Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari tomonidan huquqiy monitoring bo'yicha axborotlarni o'z vaqtida, to'liq, ishonchli va sifatli topshirilishi yuzasidan nazorat qilish, Boshqarma boshlig'iga tarkibiy bo'linmalarining huquqiy monitoringga oid faoliyati samaradorligini ta'minlash va oshirish yuzasidan takliflar va bildirishnomalar kiritish;

talabnoma-da'vo tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 50 barobardan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofot olish.

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilish.

maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga oid va bolalar huquqlarini muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni;

umumiy o'rta ta'limga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari mazmunini;

umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quv va tarbiya sifatini oshirishning usullarini;

pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasini, jamoada qulay psixologik muhit yaratishni;

o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini, ta'lim muassasasi va o'qituvchilar faoliyatini tahlil qila olish, muammolarini aniqlash va ularni hal qilishning samarali yo'llarini topishni;

5. qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni;

maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari, davlat ta'lim standartlari mazmunini;

ta'lim muassasalaridagi o'quv va tarbiya sifatini oshirishning usullarini;

pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasini, jamoada qulay psixologik muhit yaratishni;

tadbirkorlik, litsenziyalash sohasidagi qonunchilik hujjatlarni;

o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini, ta'lim muassasasi va o'qituvchilar faoliyatini tahlil qila olish, muammolarini aniqlash va ularni hal qilishning samarali yo'llarini topishni.

7. Metodist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

8. Metodist o'z lavozim majburiyatlari hamda sho'ba nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Sho'ba hujjatlari bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Metodist imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Metodist mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyalashni tashkil etish sho'basini bosh metodistining lavozim yo'riqnomasi**

## **bosh metodistining lavozim yo'riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyalashni tashkil etish Sho'basini bosh metodisti (bundan buyon matnda – bosh metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. U o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Bosh metodistining lavozim majburiyatlari**

4. Bosh metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

sho'baga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, ta'lim sifatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va bo'lim boshlig'iga taqdim etish;

bo'limning yillik ish rejasini, ta'lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiyalashni tashkil qilish reja-jadvali va dasturini tuzishda ishtirok etish hamda ijrosini ta'minlash;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha amaldagi baholash mezonini asosida seminarlar o'tkazish;

maktabgacha ta'lim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi va ixtisoslashgan maktablarni, shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlarini zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amaldagi tartib va yo'riqnomalar talablari asosida shaffof baholashni tashkil etish;

ta'lim muassasalarini tasdiqlangan yillik reja-jadvali bo'yicha attestatsiya va davlat akkreditatsiyalashdan o'tkazishni tashkil qilishda ishtirok etish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha amaldagi baholash mezonini asosida o'quvchilar bilimining davlat ta'lim standartlariga mosligi bo'yicha nazorat ishlarini shaffof o'tkazish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha komissiya a'zolari tomonidan to'plangan hujjatlar va hisobotlarni yuqori tashkilotlarga o'z vaqtida yetkazish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash rejasi bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni yuqori tashkilotlarga o'z vaqtida bildirishnomalar kiritish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish holda yuqori tashkilotlarga takliflar kiritish;

attestatsiya va davlat akkreditatsiyalashdan o'tmagan ta'lim muassasalarini amaldagi nizom asosida ish olib borishni ta'minlash;

attestatsiya va davlat akkreditatsiyalashdan o'tgan ta'lim muassasalarining sertifikatlarini hujjatlashtirgan holda yetkazish;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilish.

### **3-bob. Bosh metodistning huquqlari**

6. Bosh metodist quyidagi huquqlarga ega:

hududiy bo‘limlar hamda maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlardan bo‘lim ishi uchun kerak bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni so‘rab olish;

maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq ma’lumot va hujjatlarni bilan tanishish;

xizmat majburiyatlari doirasida, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog‘idan tekin foydalanish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

sho‘ba vakolatlariga kiruvchi masalalar bo‘yicha tashkil etiladigan yig‘ilish, majlis va seminarlarda ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Nizomi hamda Boshqarmaning Nizomiga zid bo‘lmagan boshqa huquqlarga ega

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va ta’lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni

maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid va ta’lim muassasalariga qo‘yilayotgan talablar asosidagi normativ-huquqiy hujjatlarni;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga qo‘yilgan davlat ta’lim standartlari mazmunini;

7. Bosh metodist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

### **4-bob. Bosh metodistning javobgarligi**

8. Bosh metodist o‘z lavozim majburiyatlari hamda sho‘ba nizomiga muvofiq bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho‘ba faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

11. Sho‘ba hujjatlari bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta‘minlashga shaxsan javob beradi.

12. Bosh metodisti imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Bosh metodist mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.



# **Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyalashni tashkil etish sho'bas**

## **metodistining lavozim yo'riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyalashni tashkil etish Sho'ba si metodisti (bundan buyon matnda – metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. U o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Metodistining lavozim majburiyatlari**

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

sho'baga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, ta'lim sifatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va bo'lim boshlig'iga taqdim etish;

bo'limning yillik ish rejasini, ta'lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiyalashni tashkil qilish reja-jadvali va dasturini tuzishda ishtirok etish hamda ijrosini ta'minlash;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha amaldagi baholash mezonini asosida seminarlar o'tkazish;

maktabgacha ta'lim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi va ixtisoslashgan maktablarni, shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlarini zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amaldagi tartib va yo'riqnoma talablari asosida shaffof baholashni tashkil etish;

ta'lim muassasalarini tasdiqlangan yillik reja-jadvali bo'yicha attestatsiya va davlat akkreditatsiyalashdan o'tkazishni tashkil qilishda ishtirok etish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha amaldagi baholash mezonini asosida o'quvchilar bilimining davlat ta'lim standartlariga mosligi bo'yicha nazorat ishlarini shaffof o'tkazish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha komissiya a'zolari tomonidan to'plangan hujjatlar va hisobotlarni yuqori tashkilotlarga o'z vaqtida yetkazish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash rejasi bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni yuqori tashkilotlarga o'z vaqtida bildirishnomalar kiritish;

ta'lim muassasalarining attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish holda yuqori tashkilotlarga takliflar kiritish;

attestatsiya va davlat akkreditatsiyalashdan o'tmagan ta'lim muassasalarini amaldagi nizom asosida ish olib borishni ta'minlash;

attestatsiya va davlat akkreditatsiyalashdan o'tgan ta'lim muassasalarining sertifikatlarini hujjatlashtirgan holda yetkazish;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilish.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

hududiy bo‘limlar hamda maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi barcha subyektlardan bo‘lim ishi uchun kerak bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni so‘rab olish;

maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq ma’lumot va hujjatlarni bilan tanishish;

xizmat majburiyatlari doirasida, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog‘idan tekin foydalanish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

sho‘ba vakolatlariga kiruvchi masalalar bo‘yicha tashkil etiladigan yig‘ilish, majlis va seminarlarda ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Nizomi hamda Boshqarmaning Nizomiga zid bo‘lmagan boshqa huquqlarga ega

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va ta’lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyalash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni

maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid va ta’lim muassasalariga qo‘yilayotgan talablar asosidagi normativ-huquqiy hujjatlarni;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga qo‘yilgan davlat ta’lim standartlari mazmunini;

7. Metodist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

8. Metodist o‘z lavozim majburiyatlari hamda sho‘ba nizomiga muvofiq bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho‘ba faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlaydi.

11. Sho‘ba hujjatlari bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta’minlashga shaxsan javob beradi.

12. Metodist imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Metodist mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘basi bosh metodistining lavozim yo‘riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish Sho‘basi bosh metodisti (bundan buyon matnda – **bosh metodist**)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh metodist Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma deb yuritiladi) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh metodist bevosita boshliqqa bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh metodist O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Bosh metodistning lavozim majburiyatlari**

4. Sho‘ba bosh metodisti quyidagilarni amalga oshiradi:

Bosh metodisti me‘yoriy hujjatlarda belgilangan tegishli vakolatlar va huquqlardan foydalangan holda Sho‘ba faoliyatiga oid barcha yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy rahbarlik qiladi;

Sho‘ba faoliyati doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi barcha turdagi muassasalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Hukumat qarorlari va vazirlik, boshqarma buyruqlarining bajarilishini nazorat qiladi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standarti, o‘quv reja va dasturlarining amaliyotga tatbiq etish ishlarini tashkil etadi;

vazirlik tomonidan o‘quv jarayonini metodik ta‘minlash yo‘nalishi bo‘yicha chiqqan me‘yoriy hujjatlarining ijrosini ta‘minlaydi;

metodik xizmat yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan forumlar, o‘quvlarni tashkil etadi;

o‘quvchilarda jamoada ishlash, kreativ fikrlash, muammolarni yechish va qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik, kommunikativ ko‘nikmalar, AKT va mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha turli seminarlar, uchrashuvlar, o‘quvlar tashkil etadi;

o‘quv jarayonini metodik ta‘minlash yo‘nalishida xalqaro tajribalarni o‘rganish asosida shu yo‘nalish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

Sho‘ba faoliyati doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha xalqaro, mintaqaviy va respublika miqyosida uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi.

umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi tajriba-sinov ishlarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirib boradi;

umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv rejalar, o‘quv dasturlar, darsliklar va boshqa me‘yoriy hujjatlarning bajarilishini muvofiqlashtirib boradi;

variativ va tanlov fanlari o‘quv rejalari asosida tanlov fanlari sinflarini tashkil etish choralari ko‘radi;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining tegishli fan metodistlari bilan hamkorlikda fan o‘qituvchilarining metodik yordamga bo‘lgan kasbiy ehtiyojini o‘rganish, tahlil qilish hamda tahlil natijalariga muvofiq metodik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda, ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagog xodimlarning dars taqsimotini amaldagi tarifikatsiya asosida to'g'ri taqsimlanishi bo'yicha tushuntirish ishlarini doimiy ravishda olib boradi;

xalqaro tan olingan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalarida xalqaro ta'lim dasturlarining amaliyotga samarali tatbiq etilishini muvofiqlashtiradi;

amaldagi qonunchilik va o'z huquqlari doirasida faoliyatni amalga oshiradi, buyruq va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihasini tayyorlaydi;

Sho'ba ning yillik ish rejasini ishlab chiqadi hamda bajarilishini ta'minlaydi;

umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti, o'quv reja va o'quv dasturlarini uzluksiz takomillashtirib borish, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarini joriy etilishida ishtirok etadi;

boshqarma tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlar hamda ishlab chiqarish majlislarida ishtirok etadi, rahbariyatga Sho'ba faoliyati doirasida masalalarni tayyorlaydi, takliflar kiritadi;

Sho'baning yuqori tashkilotlar bilan ishlarini muvofiqlashtiradi, boshqarmaning boshqa bo'lim va Sho'balari bilan faoliyat uzviyligini ta'minlaydi;

ta'lim tizimida metodik xizmatning sifati bilan bog'liq bo'lgan turli tadbirlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazishni muvofiqlashtiradi;

Sho'ba faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha tegishli axborotlarni yig'adi, tahlil etadi va hisobotlar tayyorlaydi.

5. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i oldida hisobot berishi.

### **3-bob. Bosh metodistning huquqlari**

6. O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish Sho'ba siga rahbarlik qiladi, vazifalar taqsimlaydi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Sho'baning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash maqsadida boshqarmaning tarkibiy hamda tuman bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

Sho'baning ta'lim mazmunini takomillashtirishga doir takliflarini, Sho'ba faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish uchun rahbariyatga kiritadi;

o'z vakolatlari doirasida seminarlar, uchrashuvlar o'tkazadi, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

boshqarma tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlarda taalluqliligi bo'yicha ishtirok etadi;

Sho'ba metodistining mehnat intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan boshqarma rahbariyati nomiga tushuntirishlar oladi, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha boshqarma boshlig'iga bildirishnoma kiritadi.

### **4-bob. Bosh metodistning javobgarligi**

7. Bosh metodist o'z lavozim majburiyatlari hamda Sho'ba nizomiga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi;

Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga erishilishiga mas'ul hisoblanadi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

Sho'bada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgar hisoblanadi.

**O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni  
muvofiqlashtirish sho‘basi metodistining lavozim  
YO‘RIQNOMASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish Sho‘basi metodisti (bundan buyon matnda –metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma deb yuritiladi) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

metodist bevosita boshliqqa bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Metodist O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

**2- bob. Sho‘ba metodistining lavozim majburiyatlari:**

4. Sho‘ba bosh metodisti quyidagilarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlarida Sho‘ba ga yuklatilgan vazifalarni hamda boshqarma rahbariyati va Sho‘ba bosh metodistining boshqa topshiriqlarini o‘z vaqtida ijro etadi;

Sho‘ba faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha Bosh metodistga taklif kiritadi;

vazirlikning o‘quv jarayonini metodik ta‘minlash bo‘yicha chiqarilgan me‘yoriy hujjatlarining ijrosini ta‘minlaydi;

metodik xizmat yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan forumlar, o‘quvlarni tashkil etadi;

boshqarma boshlig‘i huzuridagi ishlab chiqarish majlisi muhokamasiga kiritiladigan masalalar yuzasidan materiallar tayyorlaydi;

maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida metodik xizmat sifatini oshirish bo‘yicha takliflarni tahlil qiladi hamda umumlashtiradi;

kommunikativ, jamoada ishlash, kommunikativlik”, kreativ, muammolarni yechish va qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik bo‘yicha har xil seminarlar, uchrashuvlar, o‘quvlar tashkil etadi;

o‘quv jarayonini metodik ta‘minlash yo‘nalishida xalqaro tajribalarni o‘rganish asosida o‘quv jarayonini metodik ta‘minlash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

Sho‘ba faoliyati doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha xalqaro, mintaqaviy va respublika miqyosida uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi;

umumta‘lim fanlari bo‘yicha o‘quv rejalar, o‘quv dasturlar, darsliklar va boshqa me‘yoriy hujjatlarning bajarilishini muvofiqlashtirib boradi;

variativ va tanlov fanlari o‘quv rejalarini asosida tanlov fanlari sinflarini tashkil etish choralari ko‘radi;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining tegishli fan metodistlari bilan hamkorlikda fan o‘qituvchilarining metodik yordamga bo‘lgan kasbiy ehtiyojini o‘rganish, tahlil qilish hamda tahlil natijalariga muvofiq metodik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

amaldagi qonunchilik va o'z huquqlari doirasida faoliyatni amalga oshiradi, buyruq va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihasini tayyorlaydi;

Sho'baning yillik ish rejasini ishlab chiqadi hamda bajarilishini ta'minlaydi;

umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti, o'quv reja va o'quv dasturlarini uzluksiz takomillashtirib borish, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarini joriy etilishida ishtirok etadi;

Sho'baning yuqori tashkilotlar bilan ishlarini muvofiqlashtiradi, boshqarmaning boshqa bo'lim va Sho'ba lari bilan faoliyat uzviyligini ta'minlaydi;

ta'lim tizimida metodik xizmatning sifati bilan bog'liq bo'lgan turli tadbirlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazishni muvofiqlashtiradi;

Sho'ba faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha tegishli axborotlarni yig'adi, tahlil etadi va hisobotlar tayyorlaydi

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi va tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlaridan Sho'ba faoliyatiga oid ma'lumotlarni qabul qiladi va umumlashtiradi;

Sho'ba faoliyati bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni yig'adi, umumlashtiradi;

umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi tajriba-sinov ishlarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirib boradi;

Sho'baning yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

boshqarmaning ish rejasi, shuningdek, boshqarma rahbariyati topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi;

metodistga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

5. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i oldida hisobot berishi.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Sho'ba ning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni boshqarma tarkibiy va hududiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlaridan belgilangan tartibda oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

boshqarmaning ta'lim mazmunini takomillashtirishga doir takliflarini, ish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflarni bosh metodistga kiritadi;

Sho'ba oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida turli komissiyalar va ishchi guruhlar tarkibiga boshqarma tizimidagi tashkilot va muassasalarning malakali xodimlarini jalb qilish yuzasidan bosh metodistga takliflar kiritadi;

bosh metodist bilan birgalikda mavjud mehnat sharoitlarini yaxshilash, zaruriy vositalar bilan ta'minlash yuzasidan boshqarmaning tegishli tarkibiy bo'limlariga takliflar kiritadi;

o'z vakolati doirasida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va idoraviy mansub tashkilotlarning faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

bosh metodist vaqtincha ishda bo'lmaganda (mehnat ta'tili, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xizmat safari va boshqa sabablarga ko'ra) yoki mazkur lavozim bo'sh (vakant) bo'lganda uning vazifasini metodist amalga oshiradi.

metodist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

#### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

7. Metodist o'z lavozim majburiyatlari hamda Sho'ba nizomiga muvofiq zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun javob beradi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning sifatli saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

metodist uning yurituvdagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishiga javob beradi.

mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgar hisoblanadi.



# **Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalashni tashkil etish bo'yicha Bosh mutaxassisi lavozim Yo'riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalashni tashkil etish bo'yicha bosh mutaxassisi (bundan buyon matnda – bosh mutaxassis)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Tuzilma bosh mutaxassisi xizmat faoliyati davomida Vazirga bo'ysunadi.

3. Bosh mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Bosh mutaxassisning lavozim majburiyatlari**

4. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

litsenziya da'vogarlari tomonidan kelib tushgan arizalarni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqish;

Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti rahbarlarining buyruqlari va topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

yuklangan barcha vazifalar bajarilishini ta'minlash, ta'lim sifatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentiga taqdim etish;

yillik ish reja, ta'lim tashkilotlarini monitoring qilish reja-jadvali va dasturini tuzish hamda ijrosini ta'minlash;

nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati uchun litsenziya talabgorlaridan kelib tushgan arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish;

ta'lim tashkilotlari faoliyatini "Xavfni tahlil etish" tizimi asosida baholab borish va xavfi yuqori bo'lgan ta'lim tashkilotlarini belgilangan tartibda joyiga chiqib o'rganish;

ta'lim tashkilotlari faoliyatini muntazam monitoring qilish hamda belgilangan tartibda joyiga chiqib o'rganish ishlarini tashkil etish;

kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **3-bob. Bosh mutaxassisining huquqlari**

6. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni;

maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari va davlat ta'lim standartlari mazmunini;

umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quv va tarbiya sifatini oshirishning usullarini;

pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasini, jamoada qulay psixologik muhit yaratishni;

tadbirkorlik, litsenziyalash sohasidagi qonunchilik hujjatlarni;

o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini, ta'lim muassasasi va o'qituvchilar faoliyatini tahlil qila olish, muammolarini aniqlash va ularni hal qilishning samarali yo'llarini topishni.

7. Bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bosh mutaxassisning javobgarligi**

8. Bosh mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda boshqarma nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Boshqarma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Boshqarma hujjatlari bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Bosh mutaxassis imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Bosh mutaxassis mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sho'basi boshlig'ining lavozim Yo'riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sho'basi (keyingi o'rinlarda — sho'ba) boshlig'ining lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba boshlig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba boshlig'i bevosita boshliqqa bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Sho'ba boshlig'ining lavozim majburiyatlari**

4. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

sho'baga yuklatilgan vazifalarni hamda rahbariyatning boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlaydi;

sho'baning ishini takomillashtirish, o'zining va sho'ba metodistining kasbiy malakasini oshirish choralari ko'radi;

Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

sho'baning yillik, yarim yillik ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun boshqarma boshlig'iga kiritadi;

sho'baning faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda sho'ba faoliyatiga oid muhim masalalar haqida boshqarma boshlig'i va uning o'rinbosariga muntazam ravishda axborot beradi;

sho'baga bevosita umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, sho'ba metodisti faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda mazkur Nizomga muvofiq sho'baga yuklangan vazifalar ijrosini nazorat qiladi;

sho'ba xodimlarining samarali mehnat qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, qaror, farmoyishlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, vazirlikning tegishli buyruqlari, Hay'at majlisi qarorlari, Boshqarma boshlig'i (Vazir) ning buyruqlarini tuman bo'limlari va tizimdagi ta'lim muassasalari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;

sho'ba metodistiga amaldagi qonunchilikka muvofiq vakolati doirasida tegishli topshiriqlar beradi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha o'rganishlar o'tkazadi, ulardagi muammoli holatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatadi;

tuman bo'limlarining xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish yo'nalishidagi faoliyati to'g'risida rahbariyatga axborot va takliflar kiritadi;

sohaga oid hisobotlarni to'playdi, tahlil qiladi, rahbariyat va boshqa vakolatli yuqori turuvchi organlarga taqdim qilishni tashkil etadi;

sohaga oid qabul-qilinayotgan yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini o'rganib boradi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odox-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etadi, shuningdek, sho'ba metodistining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qiladi;

Boshqarma(Vazirlik)ning ish rejasi, shuningdek, vazirlik rahbariyati topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi;

Boshqarma(vazirlik)ning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qiladi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi.

5. Sho'ba boshlig'iga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

### **3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari**

6. Sho'ba boshlig'i zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

sho'baning faoliyatiga yakka boshchilik asosi da umumiy rahbarlik qiladi;

boshqarmaning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni Boshqarma (Vazirlik) tarkibiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlaridan, shuningdek, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

vakolatlari doirasida konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar o'tkazadi, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

Boshqarma(Vazirlik)ning tezkor yig'ilishlarda taalluqliligi bo'yicha ishtirok etadi;

Mehnat qonunchiligi asosida sho'ba metodistini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritadi;

sho'ba metodistining mehnat intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan vazirlik rahbariyati nomiga tushuntirishlar oladi, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha rahbarga bildirishnoma kiritadi;

vakolati doirasida tuman bo'limlari va tizimdagi ta'lim tashkilotlari faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

7. Sho'ba boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

### **4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi**

8. Sho'ba boshlig'i quyidagilar uchun javobgar:

sho'ba nizomiga muvofiq sho'baga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar hamda lavozim yo'riqnomasida belgilangan majburiyatlarning to'laqonli bajarilishi;

sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi;

shoʻbada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishi;

foydalanish uchun oʻziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va oʻzi ish olib boradigan xonada yongʻin xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

9. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan maʼlumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan maʼlumotlarni oshkor qilmaslik, Vazirlikning obroʻsi va shaʼniga putur yetkazishi mumkin boʻlgan maʼlumotlarni tarqatmaslik.

# **Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish sho‘basi metodistining lavozim YO‘RIQNOMASI**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish sho‘basi metodisti (keyingi o‘rinlarda — sho‘ba metodisti) ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho‘ba metodisti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma deb yuritiladi) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho‘ba metodisti bevosita boshqarma boshlig‘i va sho‘ba boshlig‘iga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho‘ba metodisti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi” hamda mazkur yo‘riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari**

4. Metodist:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi va Boshqarma (Vazirlik) ning hujjatlarida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hamda sho‘ba boshlig‘ining boshqa topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli ijro etadi;

Sho‘baning faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha sho‘ba boshlig‘iga taklif kiritadi;

umumiy o‘rta ta‘lim siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining tegishli boshqarmalari bilan samarali amaliy hamkorlikni ta‘minlashda sho‘ba boshlig‘iga ko‘maklashadi;

sho‘baning yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyahasini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

vakolatlari doirasida seminarlar o‘tkazadi, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o‘xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan seminar-kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan shunga o‘xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

sohaga oid hisobotlarni to‘playdi, tahlil qiladi, rahbariyatga taqdim qilishni tashkil etadi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya qiladi;

Boshqarma (Vazirlik) ning ish rejasi, shuningdek, Boshqarma (Vazirlik) rahbariyati topshirig‘iga asosan xizmat safarlariga boradi;

Boshqarma (Vazirlik) ning obro‘si va sha‘niga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma‘lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qiladi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqadi;

5. Metodistga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Metodist zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

sho'baning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni Boshqarma (Vazirlik) tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

sho'ba oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida turli komissiyalar va ishchi guruhlar tarkibiga Boshqarma (Vazirlik) tizimidagi tashkilot va muassasalarning malakali xodimlarini jalb qilish yuzasidan sho'ba boshlig'iga takliflar kiritadi;

vakolati doirasida idoraviy mansub tashkilotlar va tizimdagi ta'lim tashkilotlarining faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

7. Metodist qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

8. Metodist quyidagilar uchun javobgar:

zimmasiga yuklangan lavozim vazifalarining to'laqonli bajarilishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishi va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

9. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarma (Vazirlik)ning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

## **Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish**

### **Sho'ba boshlig'i lavozim yo'riqnomasi**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ta'lim sohasini muvofiqlashtiruvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xizmat hujjatlari;

o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkillashtirish, mehnat qonunchiligi asoslari va ichki mehnat tartibi qoidallari;

me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, rasmiylashtirish, tasdiqlash va joriy etish tartibi;

me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish uchun texnik topshiriq (buyurtma)larni tuzish tartibi;

Boshqarmaning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi;

Boshqarma faoliyatining asosiy jarayonlari;

ish yuritish asoslari;

shaxsiy kompyuterda ishlash asoslari va zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

qonunchilikka asosan foydalanishi cheklangan axborot bilan ishlash tartibi.

6. Bosh mutaxassisi quyidagilarni amalga oshiradi:

vazirlik rahbariyati hamda boshqarma boshlig'i tomonidan berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlaydi;

boshqarma ish rejasi loyihasini tayyorlashda ishtirok etish;

tuman, shahar maktabgacha va maktab ta'limi idoralari tomonidan topshirilgan hujjat, hisobotlarni tahlil qiladi va Boshqarma boshlig'iga taqdim etadi;

xususiy sheriklarning davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim talablariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarilishini monitoring qilish;

hujjatlar bilan ishlash, turli axborotlar va hisobotlar tayyorlash, ish rejasida belgilangan vazifalar hamda rahbariyat tomonidan berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash, boshqarma xodimlariga o'z lavozim vazifalarini bajarishda tashkiliy-metodik jihatdan yordam berish;

Bosh mutaxassisi ta'lim muassasalarining mulkidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish va zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda Vazirlik tizimidagi ta'lim

muassasalari, boshqaruv organlari, vazirlik rahbariyati topshirig'iga asosan davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlari bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishda Boshqarma boshlig'iga ko'maklashadi;

boshqarmada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlarni tayyorlash;

vazir va uning o'rinbosarlarining buyruq va farmoyishlarini, boshqarma boshlig'i, boshqarma boshlig'i o'rinbosari topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlash;

boshqarma boshlig'i o'rinbosari yo'qligida uning vazifasini bajarish;

bajarilgan ishlar to'g'risida boshqarma boshlig'i va boshqarma boshlig'i o'rinbosari oldida hisobot beradi.

7. Bosh mutaxassisi quyidagilarni bajarishi shart:

Hudud aholisining ehtiyojlaridan kelib chiqib, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan takliflarni o'rganish natijalari bo'yicha tanlov e'lon qilish orqali davlat-xususiy sheriklikning loyihasini amalga oshirishni taklif qilish;

davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat umumta'lim tashkiloti faoliyatini yo'lga qo'yish:

xususiy sherikka obyektini davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni belgilangan muddatlarda, tartibda va shartlarda taqdim etishi;

xususiy sheriklarga qonunchilikda belgilangan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalar taqdim etilishida ko'maklashishi;

davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat umumta'lim tashkilotlarida xorijiy tajribalarning o'rganilishi, ulardan o'rnatilgan tartibda foydalanilishi bo'yicha metodik yordamlar uyushtirish;

8. Sho'ba boshlig'i quyidagi vakolatlarga ega bo'lishi kerak:

harakatchanlikka intilish – butun kuch-g'ayrati bilan ishlash, qisqa vaqt mobaynida reja tuzish va rejaga asosan harakat qilishga tayyor bo'lish;

noaniqlik sharoitlarida harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lish – o'zgarishlarga yaxshi moslashish, axborot yetishmasligi sharoitlarida qarorlar qabul qilishga va harakat qilishga ko'nikmalarga ega bo'lish;

intellektual salohiyat – yaxshi intellektual qobiliyatlar, kuzatuvchanlik, o'tkir zehnga ega bo'lish;

tashkilotchilik qobiliyatlari – ko'rsatilgan muddatlarda qo'yilgan vazifani bajarish uchun barcha zarur resurslar (xodimlar, vositalar v.h.)ni yig'a olish ko'nikmalari;

muammolarni yechish – yechim variantlarini kompleks o'rganish orqali murakkab masalalarni yecha olish va sezilarli natijalarga erishishga intilish qobiliyati;

yaxshi rivojlangan strategik fikrlash.

### **3-bob. Bosh mutaxassisining huquqlari**

9. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

xususiy sherikdan har chorakda bitim shartlarini bajarish jarayoni to'g'risida hisobot olishga davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim talablariga va shartlarini bajarish jarayoni ustidan monitoring o'tkazishga va davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorlik ko'rsatgichlarini baholashga;

davlat-xususiy sheriklik obyektida xususiy sherik aybi bilan yuzaga kelgan zararlar qoplanishini talab qilishga;

Sho'ba boshlig'i yo'lga qo'yish siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Boshqarma faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish uchun Boshqarma boshlig'iga kiritadi.

o'z vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi faoliyati bilan bog'liq material va hujjatlar bilan tanishish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan bepul foydalanish;

ta'limni rivojlantirish sohasida huquqiy va me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumot, hujjat va materiallarni belgilangan tartibda olish;

Boshqarma mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida va o'quv seminarlarda ishtirok etish;

chet tillarini o'rganish;

Boshqarma vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha tashkil etiladigan yig'ilish, majlis va seminarlarda ishtirok etish.

Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Nizomi hamda Boshqarmaning Nizomiga zid bo'lmagan boshqa huquqlarga ega.

#### **4-bob. Bosh mutaxassisining javobgarligi**

10. Sho'ba boshlig'i quyidagilar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi:

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy hujjatlari talablarini buzish, Vazirlikning buyruq va farmoyishlarini bajarmaslik;

mazkur Yo'riqnomada bayon etilgan o'z lavozim majburiyatlarini bajarmaslik;

Boshqarma boshlig'iga o'z vaqtida hisobot, ma'lumot, hujjatlar va materiallarni taqdim etmaslik;

mehnat shartnomasi, mehnat intizomi va ichki mehnat tartibi shartlarini bajarmaslik;

o'z lavozim majburiyatlariga sovuqqonlik bilan yondashish, xizmat va lavozim vakolatlarini shaxsiy maqsadlarda suiiste'mol qilish;

tarkibida davlat yoki tijorat maxfiyligiga ega ma'lumot, hujjat va materiallarni hamda boshqarma obro'si va nomiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatish;

texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va sanitariya qoidalariga amal qilmaslik;

ish vaqtidan unumli foydalanmaslik;

moddiy boyliklarni but-butun saqlamaslik;

# **Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Sho'ba si boshlig'ining lavozim**

## **Yo'riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Sho'ba si (keyingi o'rinlarda – Sho'ba boshlig'i) yuklatilgan vazifalarni hamda boshqarma rahbariyatining boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etadi.

2. Sho'ba faoliyatini samarali tashkil etish, takomillashtirish bo'yicha boshqarma boshlig'i va o'rinbosarlariga takliflar kiritadi hamda ish faoliyati yuzasidan muntazam hisobot berib boradi.

3. Tarbiyaviy sohada zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda tegishli tashkilotlar shuningdek, boshqa jamoat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali amaliy hamkorlikni ta'minlashda boshqarma boshlig'i va o'rinbosarlariga ko'maklashadi.

### **2-bob. Sho'ba boshlig'ining lavozim majburiyatlari**

4. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

Sho'baning yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyahasini ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

Boshqarma faoliyati, uning sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, ularni takomillashtirib boradi.

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tadbirlarni, shu jumladan boshqarma rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari, o'quvlar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar)ni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi huzuridagi "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining kotibi hisoblanadi hamda Jamoat kengashi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Maktab o'quvchilari orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tarbiyaviy ishlarini olib borish borasida tegishli idoralar bilan hamkorlik qiladi.

"Tarbiya" fani turkumiga kiruvchi fanlardan o'quv dasturlari, darslik, uslubiy qo'llanmalar va adabiyotlarni yaratish va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi hamda ushbu fanlarning o'qitilishini muvofiqlashtiradi.

Ta'lim muassasalarida sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyatini joylarda o'rganadi, uslubiy yordam ko'rsatadi hamda faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyasi og'ir bolalar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etish ishlarini muvofiqlashtiradi va bu borada joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qiladi.

Sho'badagi hujjatlar yuritilishini, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar hamda ijro intizomini nazorat qiladi.

Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ta'lim sohasida olib borilayotgan tegishli dastur va loyihalarda ishtirok etadi.

Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qiladi.

Boshqarmaning ish rejasi, shuningdek boshqarma rahbariyati topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi.

Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda xizmat doirasida foydalanadigan va maxfiy xarakterdagi hujjatlar bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qiladi.

Faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning, jumladan, tegishli boshqarma va tashkilotlarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi.

Barcha vatanparvarlik yo'nalishidagi yuklangan vazifalarni amalga oshirishda tegishli tashkilotlar shuningdek, boshqa jamoat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali amaliy hamkorlikni ta'minlashda boshqarma boshlig'i va o'rinbosarlariga ko'maklashadi.

5. Sho'ba boshlig'iga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar xam yuklatilishi mumkin. Faoliyati doirasida boshqarma boshlig'ining o'rinbosariga bo'ysunadi.

### **3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari**

6. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

sho'ba faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo'ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

sho'ba zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

sho'ba zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

sho'ba vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida sho'ba xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Sho'ba boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi**

8. Sho'ba boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Sho'badagi hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Sho'ba boshlig'i imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Sho'ba boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.



# **Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish Sho'ba bosh mutaxassisining lavozim**

## **Yo'riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish Sho'ba bosh mutaxassisi (keyingi o'rinlarda – bosh mutaxassis) sho'ba boshlig'ining topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlaydi.

2. Bosh mutaxassis Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma deb yuritiladi) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh mutaxassis bevosita boshqarma boshlig'i va sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Bosh mutaxassis lavozim majburiyatlari**

4. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odoq-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, beg'araz va xolis bo'lishi;

Boshqarma faoliyati, uning sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha Sho'ba boshlig'iga takliflar kiritadi.

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tadbirlarni, shu jumladan boshqarma rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari, o'quvlar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar)ni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

Maktab o'quvchilari orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tegishli buyruqlar, qarorlar va dasturlar ijrosini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyatini joylarda o'rganadi, uslubiy yordam ko'rsatadi hamda faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyasi og'ir bolalar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirib boradi.

Sho'badagi hujjatlar yuritilishini, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar hamda ijro intizomini nazorat qiladi.

Barcha vatanparvarlik yo'nalishidagi yuklangan vazifalarni amalga oshirishda tegishli tashkilotlar shuningdek, boshqa jamoat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qiladi.

5. Bosh mutaxassisga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar xam yuklatilishi mumkin. Faoliyati doirasida boshqarma boshlig'ining o'rinbosari va Sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi.

### **3-bob. Bosh mutaxassis huquqlari**

6. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari xodimlarining ijro intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki

lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan boshqarma boshlig'i nomiga tushuntirishlar olish, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha o'rnatilgan tartibda sho'ba boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bosh mutaxassisning javobgarligi**

8. Bosh mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda sho'ba nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Sho'bada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Bosh mutaxassis imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Bosh mutaxassis mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Sho'basini metodistning lavozimi**

## **Yo'riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish Sho'basini metodisti (keyingi o'rinlarda – metodist) ning boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etadi.

2. Metodist Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining (bundan buyon matnda – Boshqarma boshlig'i) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

3. Metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirning buyruq va farmoyishlariga hamda Boshqarma boshlig'i ko'rsatmalari (bundan buyon matnda — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), Boshqarma Nizomiga hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari**

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi, boshqarmaning hujjatlarida metodistga yuklatilgan vazifalarni hamda Boshqarma boshlig'ining boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlaydi;

maktabdan tashqari ta'lim ishini takomillashtirish, o'zining va xodimlarning kasbiy malakasini oshirish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror, farmoyishlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari hamda vazirlikning pedagog va rahbar kadrlar tarkibiga tegishli masalalarga oid buyruqlari, hay'at majlisi qarorlarining ta'lim muassasalari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tadbirlarni, shu jumladan boshqarma rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari, o'quvlar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar)ni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

“Tarbiya” fani turkumiga kiruvchi fanlardan o'quv dasturlari, darslik, uslubiy qo'llanmalar va adabiyotlarni yaratish va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi hamda ushbu fanlarning o'qitilishini muvofiqlashtiradi.

Sho'badagi hujjatlar yuritilishini, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar hamda ijro intizomini nazorat qiladi.

Barcha vatanparvarlik yo'nalishidagi yuklangan vazifalarni amalga oshirishda tegishli tashkilotlar shuningdek, boshqa jamoat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qiladi.

5. Metodistga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar xam yuklatilishi mumkin. Faoliyati doirasida boshqarma boshlig'ining o'rinbosari va Sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Metodist zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

O'ziga belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni Boshqarmaning tegishli bo'limlari va hududiy idoraviy mansub tashkilotlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

O‘ziga yuklatilgan vazifalar yuzasidan maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish bo‘yicha takliflarni Boshqarma boshlig‘iga kiritadi;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqadi;

o‘z vakolati doirasida “Barkamol avlod” bolala maktablari, “Bolalar kutubxonalari” va ta’lim muassasalari faoliyatini belgilangan tartibda o‘rganadi va ularga amaliy-metodik yordamlar ko‘rsatadi;

zarur hollarda Boshqarma mablag‘lari hisobidan malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o‘rganadi;

Metodist qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

#### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

7. Metodist quyidagilar uchun javobgar:

zimmasiga yuklangan lavozim vazifalarining to‘laqonli bajarilishi;

foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishi va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma’lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarmaning obro‘si va sha’niga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni tarqatmaslik.

# **Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish Sho'basini bosh metodist lavozim yo'riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish Sho'basini bosh metodisti (bundan buyon matnda – bosh metodist) ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh metodist Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining (bundan buyon matnda – Boshqarma boshlig'i) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

3. Bosh metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirning buyruq va farmoyishlariga hamda Boshqarma boshlig'i ko'rsatmalari (bundan buyon matnda — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), Boshqarma Nizomiga hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Bosh metodistning lavozim majburiyatlari**

4. Bosh metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi, boshqarmaning hujjatlarida metodistga yuklatilgan vazifalarni hamda Boshqarma boshlig'ining boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlaydi;

maktabdan tashqari ta'lim ishini takomillashtirish, o'zining va xodimlarning kasbiy malakasini oshirish choralari ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror, farmoyishlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari hamda vazirlikning pedagog va rahbar kadrlar tarkibiga tegishli masalalarga oid buyruqlari, hay'at majlisi qarorlarining ta'lim muassasalari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;

“Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

“Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatadi;

“Barkamol avlod” bolalar maktablari to'garak a'zolarining ijodiy ishlari ko'rgazmalarini tashkil etadi, o'quvchilarning musiqa va san'at bo'yicha qobiliyatlari asosida turli ko'rik-tanlovlar o'tkazadi, shuningdek pedagog xodimlari uchun anjumanlar, seminar va kengashlar o'tkazishni tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi;

“Barkamol avlod” bolalar maktabining rivojlantirish bo'yicha istiqbol rejalarini ishlab chiqadi va muammolar bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

bolalar turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarini amalga oshiradi.

o'quvchilar o'rtasida yurtimizdagi mavjud boy madaniy merosni yaqindan tanishtirish va o'lka tarixini o'rgatishga qaratilgan turli sayohatlar uyushtiradi (sayohat darslari bundan mustasno).

bolalar turizmini rivojlantirishga qaratilgan turli tadbir va tanlovlarni o'tkazilishini monitoring qilib boradi.

o'quvchilarning madaniy hordiq olishlari uchun teatrlarga tariximiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida muzeylarga tashriflarini tashkil etadi;

umumta'lim maktablarida “Yoshlar teatr studiya”lari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga amaliy yordam ko'rsatadi;

o'quvchilar o'rtasida milliy kino san'atiga muhabbat va kino ko'rish madaniyatini rivojlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

umumta'lim maktablari o'quvchilarining Bolalar musiqa va san'at maktablariga jalb qilinishini monitoring qiladi va muvofiqlashtiradi;

o'ziga tegishli bo'lgan yillik ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Boshqarma boshlig'iga kiritadi;

jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etadi;

Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qiladi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning, murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi, sayyor qabullar tashkil etadi;

murojaatlarda ko'tarilgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha Boshqarma boshlig'iga tegishli takliflar kiritadi;

Metodistga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

5. qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Bosh metodistning huquqlari**

6. Bosh metodist quyidagi huquqlarga ega:

O'ziga belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni Boshqarmaning tegishli bo'limlari va hududiy idoraviy mansub tashkilotlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

O'ziga yuklatilgan vazifalar yuzasidan maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflarni Boshqarma boshlig'iga kiritadi;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqadi;

o'z vakolati doirasida "Barkamol avlod" bolala maktablari, "Bolalar kutubxonalari" va ta'lim muassasalari faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va ularga amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda Boshqarma mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi;

Bosh metodist qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

### **4-bob. Bosh metodistning javobgarligi**

7. Metodist quyidagilar uchun javobgar:

zimmasiga yuklangan lavozim vazifalarining to'laqonli bajarilishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishi va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishi;

jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

# **Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'yicha metodist lavozim**

## **yo'riqnomasi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish Sho'basini metodisti (bundan buyon matnda – metodist) ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining (bundan buyon matnda – Boshqarma boshlig'i) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

3. Metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyruq va farmoyishlariga hamda Boshqarma boshlig'i ko'rsatmalari (bundan buyon matnda — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), Boshqarma Nizomiga hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari**

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi, boshqarmaning hujjatlarida metodistga yuklatilgan vazifalarni hamda Boshqarma boshlig'ining boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlaydi;

maktabdan tashqari ta'lim ishini takomillashtirish, o'zining va xodimlarning kasbiy malakasini oshirish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror, farmoyishlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari hamda vazirlikning pedagog va rahbar kadrlar tarkibiga tegishli masalalarga oid buyruqlari, hay'at majlisi qarorlarining ta'lim muassasalari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;

O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyatining hududiy bo'limi rahbari bilan bilan birgalikda o'quvchi yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish, bolalarning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, "Quvnoq startlar" va "Yozgi ta'til" sport musobaqalarini o'tkazish, "Umid nihollari" va boshqa sport musobaqalarini maktab, tuman (shahar) va hududiy bosqichlarini tashkil etadi;

umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining Bolalar va o'smirlar sport maktablariga qamrab olinishini monitoring qiladi va muvofiqlashtirib boradi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchi-yoshlarini sport to'garaklariga uzluksiz jalb qilishni ta'minlaydi, sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini zamon talablari darajasida yanada takomillashtiradi, sportning harakatli va milliy turlaridan unumli foydalanishga amaliy yordam ko'rsatadi;

turli sport musobaqalari, tadbirlar o'tkazishda mahalliy boshqaruv organlariga amaliy yordam ko'rsatadi;

"Bolalar kutubxonalari" faoliyatini tahlil qiladi, ularga amaliy va uslubiy yordamlar ko'rsatadi;

"Bolalar kutubxonalari" faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

"Bolalar kutubxonalari"da o'quvchilar uchun kitobxonlik klublarini tashkil etadi va faoliyatini monitoring qiladi;

o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etish maqsadida hududiy axborot-kutubxona markazlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

ijodkor va kitobxon o'quvchilarni aniqlaydi va ularni rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;



hududlar bo'yicha kitobxonlik to'garaklari faoliyati bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni oladi va umumlashtiradi;

statsionar va kunduzgi oromgohlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatadi;

o'ziga tegishli bo'lgan yillik ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Boshqarma boshlig'iga kiritadi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etadi;

Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qiladi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning, murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi, sayyor qabullar tashkil etadi;

murojaatlarda ko'tarilgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha Boshqarma boshlig'iga tegishli takliflar kiritadi.

5. Metodistga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Metodist zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

O'ziga belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni Boshqarmaning tegishli bo'limlari va hududiy idoraviy mansub tashkilotlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

O'ziga yuklatilgan vazifalar yuzasidan maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflarni Boshqarma boshlig'iga kiritadi;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqadi;

o'z vakolati doirasida "Barkamol avlod" bolalar maktablari, "Bolalar kutubxonalari" va ta'lim muassasalari faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va ularga amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda Boshqarma mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi;

Metodist qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

7. Metodist quyidagilar uchun javobgar:

zimmasiga yuklangan lavozim vazifalarining to'laqonli bajarilishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishi va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

yurituvdagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

# **O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik xizmat Sho‘basi boshlig‘i lavozim yo‘riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik xizmat sho‘basi boshlig‘i (bundan buyon matnda – sho‘ba boshlig‘i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho‘ba boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi bilan kelishgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho‘ba boshlig‘i bevosita boshliqqa bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho‘ba boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Sho‘ba boshlig‘ining majburiyatlari**

4. Sho‘ba boshlig‘i quyidagilarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va boshqa qonun hujjatlari, vazirlik hay‘ati qarorlari, vazir va uning o‘rinbosarlarining buyruqlari va topshiriqlari bilan o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o‘z vaqtida ta‘minlash hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

yo‘nalishi bo‘yicha kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha boshqarma boshlig‘iga takliflar taqdim etish, ularning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta‘minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish, mutasaddilik qilinadigan bo‘linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

yo‘nalishi bo‘yicha xodimlarni rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni boshqarma boshlig‘i (vazir)ga kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajarilishi uchun ularning shaxsiy mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha amaliy-uslubiy yordam berish;

turli yoshdagi iqtidorli va salohiyatli bolalarni aniqlash tadbirlarini o‘tkazish, ularni saralash va ta‘lim tizimining ayrim fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktablari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlariga qabul qilish komissiyasi faoliyatida ishtirok etish;

5. Sho‘ba boshlig‘i quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me‘yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig‘i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishni ta‘minlashi;

bajarilgan ishlar to‘g‘risida Boshqarma boshlig‘i oldida hisobot berishi.

### **3-bob. Sho‘ba boshlig‘ining huquqlari**

6. Sho‘ba boshlig‘i quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

maktabgacha va maktab ta‘limi sohasiga tegishli masalalar bo‘yicha hududiy bo‘linmalar faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni boshqarma boshlig‘i (vazir)ga kiritish;

viloyat miqyosidagi psixologik-pedagogik tashxis va defektologiya yo‘nalishi bo‘yicha konferensiyalar, forumlar, seminar-treninglar, ko‘rik-tanlovlar tashkil etish;

ilg‘or pedagogik va psixologik metodikalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirib amaliyotga tatbiq etish ishlarini muvofiqlashtirish;

o‘quvchilar va ularning ota-onalari uchun kasbiy maslahatlar berish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari “Kasb va yoshlar” ochiq muloqot oyligi va boshqa shu kabi tadbirlarni tashkil etish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarni kasbga o‘rgatish jarayonlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridagi psixologlarni attestatsiyadan o‘tkazish ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

“Deviant” xulqli o‘quvchi-yoshlarning muammolari bilan bog‘liq psixologik maslahat tadbirlarini o‘tkazish;

nutqida nuqsoni bor bolalarni aniqlash, hisobga olish, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari qoshida logopediya shoxobchalarini tashkil etilishini nazorat qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

### **4-bob. Sho‘ba boshlig‘ining javobgarligi**

8. Sho‘ba boshlig‘i o‘z lavozim majburiyatlari hamda bo‘lim nizomiga muvofiq bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho‘ba faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

11. Sho‘bada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta‘minlashga shaxsan javob beradi.

12. Sho‘ba boshlig‘i imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Sho‘ba boshlig‘i mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik xizmat Sho‘ba si metodisti lavozim yo‘riqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik xizmat sho‘basi metodisti (bundan buyon matnda – metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Metodist bevosita boshliqqa bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Metodist O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Metodistning majburiyatlari**

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari bilan uzluksiz kasbga yo‘naltirish bilan bog‘liq (1-11-sinflar) psixologik-pedagogik tashxis va korreksion ishlar bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga o‘rgatish jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, professional ta‘lim muassasalarida “Kasb va yoshlar” ochiq muloqot oyligi va boshqa shu kabi tadbirlarni tashkil etish;

o‘quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar bilan guruh yoki yakka shakldagi suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etish;

turli xil yig‘ilishlarda ma‘ruzalar bilan chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali kasbga yo‘naltirish bo‘yicha psixologik bilimlarni berib borish;

o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha konferensiyalar, forumlar, seminar-treninglar, ko‘rik-tanlovlar tashkil etish;

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va o‘sish nuqtalariga muvofiq maktab o‘quvchilari uchun ustuvor kasblarni belgilash hamda 10- va 11-sinf o‘quvchilarini ushbu kasblarga o‘qitishni tashkil etilishini nazoratga olish;

o‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish masalalari bo‘yicha bandlik xizmatlari, professional ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat muassasalari, korxonalar va tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

5. Metodist quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me‘yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig‘i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishni ta‘minlashi;

bajarilgan ishlar to‘g‘risida Boshqarma boshlig‘i oldida hisobot berishi.

### **3-bob. Metodistning huquqlari**

6. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga tegishli masalalar bo‘yicha hududiy bo‘linmalar faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni boshqarma boshlig‘i (vazir)ga kiritish;

viloyat miqyosidagi psixologik-pedagogik tashxis va defektologiya yo‘nalishi bo‘yicha konferensiyalar, forumlar, seminar-treninglar, ko‘rik-tanlovlar tashkil etish;

ilg‘or pedagogik va psixologik metodikalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirib amaliyotga tatbiq etish ishlarini muvofiqlashtirish;

o‘quvchilar va ularning ota-onalari uchun kasbiy maslahatlar berish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlarida “Kasb va yoshlar” ochiq muloqot oyligi va boshqa shu kabi tadbirlarni tashkil etish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi psixologlarni attestatsiyadan o‘tkazish ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

“Deviant” xulqli o‘quvchi-yoshlarning muammolari bilan bog‘liq psixologik maslahat tadbirlarini o‘tkazish;

nutqida nuqsoni bor bolalarni aniqlash, hisobga olish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari qoshida logopediya shoxobchalarini tashkil etilishini nazorat qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

### **4-bob. Metodistning javobgarligi**

8. Metodist o‘z lavozim majburiyatlari hamda bo‘lim nizomiga muvofiq bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho‘ba faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlaydi.

11. Sho‘bada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta’minlashga shaxsan javob beradi.

12. Metodist imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Metodist mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Moliya bo'limi**  
**Moliya bo'limi boshlig'i lavozim**  
**YO'RIQNOMASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Moliya bo'limi (keyingi o'rinlarda bo'lim deb yuritiladi) boshlig'i (keyingi o'rinlarda boshliq deb yuritiladi) quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Hududiy boshqarma boshlig'i (moliyaviy masalalar bo'yicha) o'rinbosariga bo'sunadi;

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

**2-bob. Bo'lim boshlig'ining lavozim majburiyatlari**

3. Bo'lim xodimlarining lavozim majburiyatlariga rioya qilinishini va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi hamda ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilishini nazorat qiladi;

moliyaviy-iqtisodiy masalalarga doir hududiy boshqarmaning qarorlari, buyruqlari va shu kabi boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Boshliq bo'lim xodimlari bilan birgalikda dasturiy majmualarda berilgan (login-parol) imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda doimiy monitoringini olib boradi;

Hududiy boshqarmaning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini o'z vaqtida tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishini, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlaydi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlarini o'z vaqtida tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishini, zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlarini o'z vaqtida tuzilishi, ro'yxatdan o'tkazilishi hamda ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni nazorat qiladi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarining xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlari, ularni tuzish uchun tegishli ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri to'lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalari va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining homiladorlik va tug'ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda topshirilishini, qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib borilishini va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborilishini ta'minlaydi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro'yxatlarini tuzish uchun tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar o'zgarishini tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan shtatlar jadvalini qabul qilinishini va tahlil qilgan holda jamlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborilishini ta'minlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan xarajatlar smetalarini qabul qilinishini va tahlil qilgan holda jamlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborilishini ta'minlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish haqi to'lovlari bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni qabul qilinishini va tahlil qilgan holda jamlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborilishini ta'minlaydi;

Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarida ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag'lar, shtat birliklari to'ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo'yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larni chegirish bo'yicha doimiy tahlil qilib borilishini ta'minlaydi, chegiriladigan mablag'lar to'g'risida Hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosariga axborot kiritib boradi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning budjetdan tashqari jang'arma mablag'larini shakllantirilishini (daromadlarini oshirishni) tahlil qilib boradi hamda xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

Bo'lim, Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar hamda Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari xodimlari tomonidan vazirlik topshiriqlarini bajarishda sustkashlikka yo'l qo'yilgan taqdirda, ularga chora ko'rish yuzasidan Hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosariga taklif kiritadi;

Bo'limning boshqa tarkibiy bo'linmalari bilan faoliyat uzviyligini ta'minlash, faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tegishli axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va birgalikda ishlashni tashkil qiladi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va boshqa ta'lim muassasalari va tashkilotlarga kiritiladigan lavozimlar bo'yicha ish haqi to'lovlari, ustama haq va boshqa qo'shimcha to'lovlar belgilanishi yuzasidan tushunmovchiliklar yuzaga kelgan holatlarda metodik yordam ko'rsatadi;

Hududiy boshqarma tizimidagi tashkilot va muassasalarning bosh hisobchi va bosh iqtisodchilariga o'quv-treninglar tashkil etadi;

hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, budjet intizomiga rioya etishni ta'minlaydi;

Hududiy boshqarma, tasarrufidagi tashkilot va muassasalar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi rejalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirish holatlarini tahlil qilinishini ta'minlaydi;

tashkilot va muassasalar, korxonalar va fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, ular yuzasidan hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

“Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida”gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlashni ta'minlaydi, yuridik va jismoniy shaxslarni shaxsan qabul qiladi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosariga axborot kiritib boradi.

### **3-bob. Bo'lim boshlig'ining huquqlari**

4. Boshliq o'rinbosari quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy zararining kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;



o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

5. Boshliq o'rinbosari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bo'lim boshlig'ining javobgarligi**

6. Boshliq o'rinbosari o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Boshliq o'rinbosari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Boshliq o'rinbosari hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Boshliq o'rinbosari imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. Boshliq o'rinbosari mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Moliya bo‘limi**  
**Moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimi**

**YO‘RIQNOMASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Moliya bo‘limi (keyingi o‘rinlarda bo‘lim deb yuritiladi) boshlig‘i o‘rinbosari quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Moliya bo‘limi boshlig‘iga bo‘ysunadi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning Hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi.

**2-bob. Bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosarining lavozim majburiyatlari**

3. Bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosarining quyidagilarni amalga oshiradi:

ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

moliyaviy-iqtisodiy masalalarga doir hududiy boshqarmaning qarorlari, buyruqlari va shu kabi boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlariga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tahlil qilib boradi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlarini tuzish uchun tegishli bo‘lgan ko‘rsatkichlar o‘zgarishini tahlil qilib boradi;

taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo‘yicha ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag‘lar, shtat birliklari to‘ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo‘yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo‘shab qoladigan mablag‘larni chegirish bo‘yicha doimiy tahlil qilib boradi, chegiriladigan mablag‘lar to‘g‘risida Moliya bo‘limi boshlig‘iga axborot kiritadi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo‘yicha xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlari, ularni tuzish uchun tegishli ko‘rsatkichlar o‘zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o‘zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘g‘ri to‘lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib boradi;

tegishli hudud bo‘yicha Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta‘lim muassasalarining homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda jamlaydi, qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar bo‘yicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib boradi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan ta‘lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo‘yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari tomonidan yuborilgan shtatlar jadvalini qabul qiladi va tahlil qilgan holda jamlab Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarning birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan xarajatlar smetalarini qabul qiladi va va tahlil qilgan holda jamlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining ish haqi to'lovlari bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni qabul qiladi va va tahlil qilgan holda jamlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning budjetdan tashqari jamg'arma mablag'larini shakllantirilishini (daromadlarini oshirishni) tahlil qilib boradi hamda xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va boshqa ta'lim muassasalarining kiritiladigan lavozimlar bo'yicha ish haqi to'lovlari, ustama haq va boshqa qo'shimcha to'lovlar belgilanishi yuzasidan tushunmovchiliklar yuzaga kelgan holatlarda metodik yordam ko'rsatadi;

taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi tashkilot va muassasalar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirib borish holatlarini tahlil qiladi;

moliyaviy masalalarga oid o'quv-treninglarda ishtirok etadi;

hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, budjet intizomiga rioya etishni tahlil qiladi;

tashkilot va muassasalar, korxonalar va fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, ular yuzasidan hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

"Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlaydi, zarur hollarda yuridik va jismoniy shaxslarni shaxsan qabul qiladi;

Moliya bo'limi boshlig'i yo'qligida uning vazifasini bajaradi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Moliya bo'limi boshlig'iga axborot kiritib boradi.

### **3-bob. Bo'lim boshlig'ining huquqlari**

4. Bo'lim boshlig'i o'rinbosari quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

5. Boshliq o'rinbosari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bo'lim boshlig'i o'rinbosarining javobgarligi**

6. Bo'lim boshlig'i o'rinbosari o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Bo'lim boshlig'i o'rinbosari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Bo'lim boshlig'i o'rinbosari hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Bo'lim boshlig'i o'rinbosari imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. Bo'lim boshlig'i o'rinbosari mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Moliya bo'limi**  
**Bosh mutaxassis lavozim**

**YO'RIQNOMASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Moliya bo'limi (keyingi o'rinlarda bo'lim deb yuritiladi) Bosh mutaxassisi quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Moliya bo'limi boshlig'iga bo'ysunadi;

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi;

**2-bob. Bosh mutaxassisning lavozim majburiyatlari**

3. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

moliyaviy-iqtisodiy masalalarga doir hududiy boshqarmaning qarorlari, buyruqlari va shu kabi boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilib boradi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlarini tuzish uchun tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar o'zgarishini tahlil qilib boradi;

taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo'yicha ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag'lar, shtat birliklari to'ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo'yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larni chegirish bo'yicha doimiy tahlil qilib boradi, chegiriladigan mablag'lar to'g'risida Moliya bo'limi boshlig'iga axborot kiritadi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlari, ularni tuzish uchun tegishli ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri to'lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib boradi;

tegishli hudud bo'yicha Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining homiladorlik va tug'ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda jamlaydi, qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib boradi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan shtatlar jadvalini qabul qiladi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan xarajatlar smetalarini qabul qiladi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining ish haqi to'lovlari bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni qabul qiladi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarining budjetdan tashqari jamg'arma mablag'larini shakllantirilishini (daromadlarini oshirishni) tahlil qilib boradi hamda xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va boshqa ta'lim muassasalarining kiritiladigan lavozimlar bo'yicha ish haqi to'lovlari, ustama haq va boshqa qo'shimcha to'lovlar belgilanishi yuzasidan tushunmovchiliklar yuzaga kelgan holatlarda metodik yordam ko'rsatadi;

taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi tashkilot va muassasalar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirib borish holatlarini tahlil qiladi;

moliyaviy masalalarga oid o'quv-treninglarda ishtirok etadi;

hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, budjet intizomiga rioya etishni tahlil qiladi;

tashkilot va muassasalar, korxonalar va fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, ular yuzasidan hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

“Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida”gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlaydi va bo'lim boshlig'iga kiritadi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Moliya bo'limi boshlig'iga axborot kiritib boradi.

### **3-bob. Bosh mutaxassisning huquqlari**

4. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

5. Bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Bosh mutaxassisning javobgarligi**

6. Bosh mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Bosh mutaxassis faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Bosh mutaxassis hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Bosh mutaxassis imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. Bosh mutaxassis mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Moliya bo‘limi**  
**Yetakchi mutaxassisi lavozim**  
**YO‘RIQNOMASI**

1. Moliya bo‘limi (keyingi o‘rinlarda bo‘lim deb yuritiladi) Yetakchi mutaxassisi quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Moliyaviy tahlil va rejalashtirish bo‘limi boshlig‘iga bo‘ysunadi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi;

**2-bob. Yetakchi mutaxassisning lavozim majburiyatlari**

3. Yetakchi mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

moliyaviy-iqtisodiy masalalarga doir hududiy boshqarmaning qarorlari, buyruqlari va shu kabi boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Hududiy boshqarmaning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallariga kiritiladigan asosli o‘zgartirish hamda qo‘shimchalarni tayyorlaydi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlariga kiritiladigan asosli o‘zgartirish hamda qo‘shimchalarni tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari faoliyatini, jumladan, ular bilan qamrab olingan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlarini o‘z vaqtida tuzilishi, ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda zarur hollarda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini nazorat qiladi;

Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlariga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tahlil qilib boradi;

Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlarini tuzish uchun tegishli bo‘lgan ko‘rsatkichlar o‘zgarishini tahlil qilib boradi;

taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo‘yicha ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag‘lar, shtat birliklari to‘ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo‘yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo‘shab qoladigan mablag‘larni chegirish bo‘yicha doimiy tahlil qilib boradi, chegiriladigan mablag‘lar to‘g‘risida Moliya bo‘limi boshlig‘iga axborot kiritadi;

Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning budjetdan tashqari jang‘arma mablag‘larini shakllantirish holatlarini tahlil qiladi;

taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi tashkilot va muassasalar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo‘yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag‘larni o‘z vaqtida o‘zlashtirib borish holatlarini tahlil qiladi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida taqsimlangan Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya



xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlari, ularni tuzish uchun tegishli ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri to'lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib boradi;

tegishli hudud bo'yicha Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarning homiladorlik va tug'ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda jamlaydi, qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib boradi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan shtatlar jadvalini qabul qiladi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish haqi to'lovlari bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan yuborilgan qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni qabul qiladi va jamlangan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga yuborishga tayyorlaydi;

moliyaviy masalalarga oid o'quv-treninglarda ishtirok etadi;

hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi

Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, budjet intizomiga rioya etishni tahlil qiladi;

tashkilot va muassasalar, korxonalar va fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, ular yuzasidan hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

“Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida”gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlaydi va bo'lim boshlig'iga kiritadi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Moliya bo'limi boshlig'iga axborot kiritib boradi.

### **3-bob. Yetakchi mutaxassisning huquqlari**

4. Yetakchi mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

5. Boshliq o'rinbosari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Yetakchi mutaxassisning javobgarligi**

6. Yetakchi mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Yetakchi mutaxassis faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Yetakchi mutaxassis hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Yetakchi mutaxassis imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. Yetakchi mutaxassis mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari shoʻbasi mudiri – bosh hisobchining lavozim Yoʻriqnomasi**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yoʻriqnomasi Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari shoʻbasi mudiri – bosh hisobchi (bundan buyon matnda – bosh hisobchi)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh hisobchi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalari (keyingi oʻrinlarda Hududiy boshqarma) boshligʻi buyrugʻiga koʻra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh hisobchi bevosita boshliqqa boʻysunadi va oʻz faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh hisobchi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hayʼati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda koʻrsatmalariga, boshqarmaning Hayʼati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning oʻz vaqtida ijro etilishini taʼminlagan holda faoliyatini olib boradi.

## **2-bob. Bosh hisobchining majburiyatlari**

4. Bosh hisobchi quyidagilarni amalga oshiradi:

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilangan vazifalarni ijrosini shahar tuman maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari tomonidan bajarilishini taʼminlaydi.

vazirlikning hayʼati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda koʻrsatmalariga, boshqarmaning hayʼati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan zimmasiga yuklangan vazifalarning oʻz vaqtida ijro etilishini taʼminlash;

5. Bosh hisobchi quyidagilarni amalga oshiradi:

-Boshqarma xodimlarini mehnat va mehnatga haq toʻlash ishlarini muddatida kechiktirmay bajarilishini taʼminlaydi, xodimlarning oylik maoshini hisoblash, ularni oʻz vaqtida berib borilishini taʼminlash, moddiy va pul mablagʻlarini toʻgʻri saqlanishi va sarflanishini taʼminlaydi;

-Buxgalteriya hisobini Yoʻriqnomaga va boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi doirasida ularning buyurtmalariga muvofiq va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlar xarid qilish va xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar tuzish, shuningdek, iste'mol limitlari va sarf-xarajat normalariga rioya etilishini nazorat qiladi;

"Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlashni nazorat qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarni shaxsan qabul qiladi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiriga axborot kiritib boradi.

### **3-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisining huquqlari**

5. Bosh hisobchi quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni bo'lim xodimlari va boshqarmadan, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

xizmat majburiyatlari doirasida telefon aloqa xizmati, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnatilgan ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan bo'lim boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisining javobgarligi**

6. O'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq sho'baga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomaga" muvofiq buxgalteriya hisobini yuritilishiga javob beradi.

12. Mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisining umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh hisobchisi o'rinbosari**  
**LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati (keyingi o'rinlarda Buxgalteriya xizmati deb yuritiladi) umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh hisobchisi o'rinbosari (keyingi o'rinlarda Bosh hisobchi o'rinbosari deb yuritiladi)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh hisobchi o'rinbosari tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'ining buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh hisobchi o'rinbosari bevosita maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga bo'ysunadi va o'z faoliyatini bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh hisobchi o'rinbosari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

**2-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchi o'rinbosarining lavozim majburiyatlari**

4. Bosh hisobchi o'rinbosari quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisiga bo'ysunadi;

ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi;

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta ta'lim maktablari, bo'yicha buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim majburiyatlariga rioya qilinishini, ular o'rtasida taqsimlangan vazifalar bajarilishini ta'minlaydi;

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'yicha buxgalteriya xizmati xodimlarining ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallari o'z vaqtida tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishini, shuningdek, zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlarini tegishli ko'rsatkichlar, me'yoriy hujjatlar asosida o'z vaqtida tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishini, shuningdek, zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlarini tuzish uchun tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar o'zgarishini tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari va shartnomalar tuzilishini amaldagi qonunchilikka muvofiqligini hamda to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning tovar-moddiy qiymatliliklarni amaldagi qonunchilikka muvofiq ro'yxatga olish, kirim qilish va hisobdan chiqarishni ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda to'lanishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarida ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag'lar, shtat birliklari to'ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo'yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larni chegirish bo'yicha doimiy tahlil qilib borilishini ta'minlaydi va chegiriladigan mablag'lar to'g'risida Bosh hisobchi hamda Bosh iqtisodchiga axborot kiritib boradi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta ta'lim maktablarining homiladorlik va tug'ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda topshirilishini va to'lanishini, qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib borilishini va jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha shtatlar jadvallari (tarifikatsiya ro'yxatlari) tuzilishi va tasdiqlanishini, jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha xarajatlar smetalari tuzilishi va tasdiqlanishini, jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining ish haqi to'lovlari uchun talab etiladigan qo'shimcha mablag'larni asoslangan hisob-kitoblar asosida aniqlanishini va ushbu qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'larini (daromadlarni oshirish bo'yicha) jalb qilish holatlarini ta'minlaydi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida Buxgalteriya xizmat tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallari, ularni tuzish uchun tegishli ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri to'lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya hisobi va hisobotlarini amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini hamda yuritilishini ta'minlaydi;



tegishli davr uchun moliyaviy hisobotlarni tuzish va hududiy organlarga o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya hisobotlari bo'yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi;

moliyaviy sohaga oid bo'lgan hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi;

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi doirasida ularning buyurtmalariga muvofiq va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlar xarid qilish va xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar tuzish, shuningdek, iste'mol limitlari va sarf-xarajat normalariga rioya etilishini ta'minlaydi;

“Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida”gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlashni ta'minlaydi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Bosh hisobchiga axborot kiritib boradi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisi yo'qligida uning vazifasini bajaradi.

### **3-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchi o'rinbosarining huquqlari**

5. Bosh hisobchi o'rinbosari quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;



davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni bo'lim xodimlari va boshqarmadan, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan bo'lim boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchi o'rinbosarining javobgarligi**

6. O'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq sho'baga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomaga" muvofiq buxgalteriya hisobini yuritilishiga javob beradi.

12. Mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh iqtisodchisining**

## **LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati (keyingi o'rinlarda Buxgalteriya xizmati deb yuritiladi) Bosh iqtisodchisi (keyingi o'rinlarda Bosh iqtisodchisi deb yuritiladi)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh iqtisodchi viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh iqtisodchi bevosita maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga bo'ysunadi va o'z faoliyatini bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh iqtisodchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnoma" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh iqtisodchisining lavozim majburiyatlari**

4. Bosh iqtisodchi quyidagilarni amalga oshiradi:

ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi;

umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'yicha buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim majburiyatlariga rioya qilinishini, ular o'rtasida taqsimlangan vazifalar bajarilishini ta'minlaydi;

umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'yicha buxgalteriya xizmati xodimlarining ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini o'z vaqtida tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishini, shuningdek, zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlarini tegishli ko'rsatkichlar, me'yoriy hujjatlar asosida o'z vaqtida tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishini, shuningdek, zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlarini tuzish uchun tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar o'zgarishini tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarida ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag'lar, shtat

birliklari to'ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo'yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larni chegirish bo'yicha doimiy tahlil qilib borilishini ta'minlaydi va chegiriladigan mablag'lar to'g'risida Bosh hisobchiga axborot kiritib boradi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining homiladorlik va tug'ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda topshirilishini va to'lanishini, qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib borilishini va jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha shtatlar jadvallari (tarifkatsiya ro'yxatlari) tuzilishi va tasdiqlanishini, jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha xarajatlar smetalari tuzilishi va tasdiqlanishini, jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining ish haqi to'lovlari uchun talab etiladigan qo'shimcha mablag'larni asoslangan hisob-kitoblar asosida aniqlanishini va ushbu qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'larini (daromadlarni oshirish bo'yicha) jalb qilish holatlarini ta'minlaydi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida Buxgalteriya xizmat tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallari, ularni tuzish uchun tegishli ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri to'lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib borilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya hisobi va hisobotlarini amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini hamda yuritilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya hisobotlari bo'yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi;

moliyaviy sohaga oid bo'lgan hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi;

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi doirasida ularning buyurtmalariga muvofiq va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlar xarid qilish va xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar tuzish, shuningdek, iste'mol limitlari va sarf-xarajat normalariga rioya etilishini ta'minlaydi;

“Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlashni ta‘minlaydi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Bosh hisobchiga axborot kiritib boradi;

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisi yo‘qligida uning vazifasini bajaradi.

### **3-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta‘lim muassasalari bo‘yicha Bosh iqtisodchisining huquqlari**

5. Bosh iqtisodchi quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta‘tillari berish orqali ta‘minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta‘minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta‘minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi va ma‘naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni bo‘lim xodimlari va boshqarmadan, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan bo'lim boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh iqtisodchisining javobgarligi**

6. O'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq sho'bagaga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq buxgalteriya xizmatining xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, shtat jadvallari, jamlanma shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish hamda budjet intizomiga rioya etilishiga javob beradi.

12. Mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# **Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh mutaxassis (iqtisodchi)**

## **LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati (keyingi o'rinlarda Buxgalteriya xizmati deb yuritiladi) umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh mutaxassis (iqtisodchi)si (keyingi o'rinlarda iqtisodchi deb yuritiladi)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh mutaxassis viloyat maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi boshlig'ining buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh mutaxassis bevosita maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga bo'ysunadi va o'z faoliyatini bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh mutaxassis (iqtisodchi) lavozim majburiyatlari**

4. Buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh mutaxassisi quyidagilarni amalga oshiradi:

ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim muassasalari xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika~~t~~siya ro'yxatlarini tegishli ko'rsatkichlar, me'yoriy hujjatlar asosida o'z vaqtida tuzadi hamda ro'yxatdan o'tkazadi, shuningdek, zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim muassasalarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika~~t~~siya ro'yxatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qiladi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim muassasalarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika~~t~~siya ro'yxatlarini tuzish uchun tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar o'zgarishlarini tahlil qiladi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim muassasalarida ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag'lar, shtat birliklari to'ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo'yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larni chegirish bo'yicha doimiy tahlil qilib boradi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim muassasalarning byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'larini (daromadlarni oshirish bo'yicha) jalb qilish holatlari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

shtat-kontingent ko'rsatkichlar bo'yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida Buxgalteriya xizmat tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarining xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlarini tuzish uchun tegishli ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o'zgartirishlarni doimiy tahlil qiladi;

Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan taqsimlangan umumta'lim muassasalarining homiladorlik va tug'ish nafaqalarini belgilangan muddatlarda tegishliligi bo'yicha topshirilishini ta'minlaydi hamda qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni doimiy tahlil qilib boradi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborishga tayyorlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha shtatlar jadvallari (tarifika<sup>t</sup>siya ro'yxatlari) tuzadi va tasdiqlanishga, jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborishga tayyorlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha xarajatlar smetalari tuzadi va tasdiqlanishga, jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborishga tayyorlaydi;

Buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan umumta'lim muassasalarining ish haqi to'lovlari uchun talab etiladigan qo'shimcha mablag'larni asoslangan hisob-kitoblar asosida aniqlaydi va ushbu qo'shimcha mablag' ajratish uchun buyurtmanomalarni jamlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yuborishga tayyorlaydi;

moliyaviy sohaga oid bo'lgan hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi;

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, byudjet intizomiga rioya etadi;

“Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida”gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlaydi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan Bosh hisobchiga axborot kiritib boradi.

### **3-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh mutaxassis (iqtisodchi)ning huquqlari**

5. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;



ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni bo'lim xodimlari va boshqarmadan, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan bo'lim boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha Bosh mutaxassis (iqtisodchi) javobgarligi**

6. O'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq sho'baga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

9. Hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

10. Imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” Nizomga muvofiq buxgalteriya xizmatining xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, shtat jadvallari, jamlanma shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish hamda budjet intizomiga rioya etilishiga javob beradi.

12. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha  
Xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha bosh mutaxassis (guruh rahbari)ning  
LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati (keyingi o'rinlarda Buxgalteriya xizmati deb yuritiladi) umumta'lim muassasalari bo'yicha Xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha bosh mutaxassis (guruh rahbari) (keyingi o'rinlarda Bosh mutaxassis deb yuritiladi)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh mutaxassis tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'ining buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh mutaxassis bevosita maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga bo'ysunadi va o'z faoliyatini bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

**2-bob. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati umumta'lim muassasalari bo'yicha  
Xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha bosh mutaxassis (guruh rahbari)ning lavozim  
majburiyatlari**

4. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Buxgalteriya xizmati Bosh hisobchisiga bo'ysunadi;  
ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, homiladorlik va tug'ish nafaqasi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda to'laydi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida xodimlar bilan hisob-kitoblar, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri va maqsadli amalga oshirilishini ta'minlaydi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarida ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablag'lar, shtat birliklari to'ldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar bo'yicha reja bajarilmaganligi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larni chegirish bo'yicha doimiy tahlil qiladi va chegiriladigan mablag'lar to'g'risida Bosh hisobchi hamda Bosh iqtisodchiga axborot kiritib boradi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya hisobi va hisobotlarini amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda rasmiylashtiradi hamda yuritadi;

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining va Buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlar xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha tegishli davr uchun moliyaviy hisobotlarni shakllantiradi;

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, byudjet intizomiga rioya etadi;

174. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati o'zini yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyihasini ishlab chiqib, bo'limning yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyihasiga kiritadi.

Lavozim majburiyatidagi ishlarni amalga oshiradi.

175. Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qiladi.

176. Bo'limning ish rejasi, shuningdek Bo'lim boshlig'i topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi.

177. Bo'lim boshlig'i – mutaxassisga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

#### **3-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Chilangar-santexnik ining huquqlari**

178. Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmatining vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

179. Chilangar-santexnik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

180. Chilangar-santexnik quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi faoliyati bilan bog'liq material va hujjatlar bilan tanishish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish sohasida huquqiy va me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumot, hujjat va materiallarni belgilangan tartibda olish;

bo'lim mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida o'qish;  
chet tillarini o'rganish;

Chilangar-santexnik O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Nizomi hamda Bo'lim Nizomiga zid bo'lmagan boshqa huquqlarga ega.

#### **4-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Chilangar-santexnikning javobgarligi**

181. Chilangar-santexnik zimmasiga yuklatilgan lavozim majburiyatlarini to'laqonli bajarilishi uchun javob beradi.

182. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

183. Chilangar-santexnikning yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishiga javob beradi.

184. Chilangar-santexnik mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

## **Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Payvandchi LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

185. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati Payvandchining –(keyingi o'rinlarda – Payvandchi lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

186. Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati Payvandchi Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'ining (keyingi o'rinlarda – bo'lim boshlig'i) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

- Payvandchi bevosita Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'iga hamda bosh muhandisga bo'ysunadi hamda o'z faoliyatini bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan bo'lim ish rejasi va bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan shaxsiy ish rejasi asosida amalga oshiradi.

187. Payvandchi O'rta maxsus ma'lumot diplomiga ega bo'lishi ma'lumotga ega bo'lgan kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

188. Payvandchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, bo'limning hay'ati qarorlari, bo'limning buyruq va farmoyishlariga hamda bo'lim boshlig'i ko'rsatmalariga, Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Nizomiga hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Payvandchi lavozim majburiyatlari**

189. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlarida bo'linga yuklatilgan vazifalarni hamda bo'lim boshlig'i hamda bosh muhandisning boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etadi.

190. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati o'zini yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyihasini ishlab chiqib, bo'limning yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyihasiga kiritadi.

Lavozim majburiyatidagi ishlarni amalga oshiradi.

191. Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odoq-axloq qoidalari talablariga rioya qiladi.

192. Bo'limning ish rejasi, shuningdek Bo'lim boshlig'i topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi.

193. **Payvandchi** – mutaxassisga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

### **3-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Payvandchi-santexnigining huquqlari**

194. Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmatining vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

195. Payvandchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

196. Payvandchi quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi faoliyati bilan bog'liq material va hujjatlar bilan tanishish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish sohasida huquqiy va me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumot, hujjat va materiallarni belgilangan tartibda olish;

bo'lim mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida o'qish;  
chet tillarini o'rganish;

Payvandchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Nizomi hamda Bo'lim Nizomiga zid bo'lmagan boshqa huquqlarga ega.

#### **4-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Payvandchining javobgarligi**

197. Payvandchi zimmasiga yuklatilgan lavozim majburiyatlarini to'laqonli bajarilishi uchun javob beradi.

198. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

199. Payvandchining yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishiga javob beradi.

200. Payvandchi mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

## **Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Haydovchi LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

201. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati Haydovchining –(keyingi o'rinlarda – Haydovchi lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

202. Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati Haydovchi Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'ining (keyingi o'rinlarda – bo'lim boshlig'i) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

- Haydovchi bevosita Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'iga hamda bosh muhandisga bo'ysunadi hamda o'z faoliyatini bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan bo'lim ish rejasi va bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlangan shaxsiy ish rejasi asosida amalga oshiradi.

203. Haydovchi O'rta maxsus ma'lumot diplomiga ega bo'lishi ma'lumotga ega bo'lgan kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

204. Haydovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, bo'limning hay'ati qarorlari, bo'limning buyruq va farmoyishlariga hamda bo'lim boshlig'i ko'rsatmalariga, Tuman(shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Nizomiga hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

### **2-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Haydovchi lavozim majburiyatlari**

205. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlarida bo'limga yuklatilgan vazifalarni hamda bo'lim boshlig'i hamda bosh muhandisning boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etadi.

Lavozim majburiyatidagi ishlarni amalga oshiradi.

O'ziga yuklatilgan xizmat avtomashinasini faqat ish vaqtida foydalanish, texnik holatini doimiy tarzda nazorat qilib borish.

Xizmat avtomashinasini texnik holati bo'yicha bosh muhandisga ma'lumotlar taqdim etib borish.

206. Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya qiladi.

207. Haydovchi – mutaxassisga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

### **3-bob. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Haydovchi -santexnik ining huquqlari**

208. Haydovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga ashiradi.

209. Haydovchi quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi faoliyati bilan bog'liq material va hujjatlar bilan tanishish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish sohasida huquqiy va me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumot, hujjat va materiallarni belgilangan tartibda olish;

bo'lim mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida o'qish;

chet tillarini o'rganish;



Payvandchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Nizomi hamda Bo‘lim Nizomiga zid bo‘lmagan boshqa huquqlarga ega.

#### **4-bob. Maxsus ta’mirlash-ekspluatatsiya xizmati – Haydovchining javobgarligi**

210. Haydovchi zimmasiga yuklatilgan lavozim majburiyatlarini to‘laonli bajarilishi uchun javob beradi.

211. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlaydi.

212. Haydovchining yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishiga javob beradi.

213. Haydovchi mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

# TUMAN (SHAHAR) MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI

## TO'G'RSIDA NAMUNAVIY

### NIZOM

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (bundan buyon matnda bo'lim deb yuritiladi)ning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim fuqarolarning ta'limga doir konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishini ta'minlovchi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim sohasida davlat siyosatini tegishli tuman (shahar)da amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi), tegishligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi ta'limi vazirligi, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi bosh boshqarmasi (bundan buyon matnda hududiy boshqarma deb yuritiladi)ga bo'ysunadi va hisobot beradi.

4. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlik va hududiy boshqarmaning Hay'at qarorlari va buyruqlarga, tegishli mahalliy hokimliklarning qarorlariga, boshqa normativ huquqiy hujjatlari, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Bo'lim yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri va o'z nomi tushirilgan muhr va blankalarga, mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'linmalarida shaxsiy g'azna hisob varag'iga, bank hisob raqamiga ega bo'ladi.

7. Bo'limning yuridik manzili (pochta manzili):

#### **2-bob. Bo'limning tizimi**

8. Bo'lim tizimiga bo'limning apparati, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari kiradi.

#### **3-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari**

9. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikka va hududiy boshqarmaga yuklangan vazifalar hamda funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, faoliyatini tashkil etish sohasida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

tasarrufidagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, davlat umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlanishini muvofiqlashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'quv-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

bolalarni maktabga sifatli tayyorlash masalalari bo'yicha nodavlat ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishlarida tegishliligi bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash;

bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, insonparvarlik an'analariga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalari yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash choralari ko'rish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash;

davlat xususiy-sheriklik asosidagi ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish yuzasidan tadbirkorlik subyektlarini jalb etish bo'yicha ishlarni tashkil etadi. pedagoglarni kasbiy faoliyatiga bog'liq bo'lmagan turli xil ishlarga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash;

9-sinf bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'liq qamrab olish, ularning umumiy o'rta ta'lim muassasalari 10-sinfida yoki o'zlari tanlagan akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'qishlarini davom ettirishlarini ta'minlash;

maktab ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik xizmat ko'rsatish, ilg'or tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish;

o'quvchi-yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash;

o'quvchilarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, turli xil zo'ravonlik ko'rinishlarining oldini olish, suitsid holatlarga moyilligi bo'lgan o'quvchilarni barvaqt aniqlash va ularga ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash;

inklyuziv ta'limning metodik ta'minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislariga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqishda ishtirok etish hamda takomillashtirib borish bo'yicha takliflar berish;

inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalari, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab borish;

inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'quv-seminarlarni tashkil etish;

tuman (shahar) darajasidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish; markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan maktabgacha va umumta'lim ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetalari, shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro'yxatlarini o'z vaqtida shakllantirishini, tasdiqlanishini hamda zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlash;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar to'lash, shuningdek, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa talabnomalarni o'z vaqtida taqdim etish va to'lash.

10. Bo'lim quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

bo'lim va uning xodimlari faoliyatini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatiga rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiya jarayoniga muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradigan yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim berishning muqobil shakllarini rivojlantiradi;

tuman (shahar) darajasidagi budjetdan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari xarajatlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarda sog'lom ovqatlanishni tashkil etadi hamda oziq-ovqat zaxirasi bo'yicha talablarni shakllantiradi, ovqatlantirish me'yorlari asosida ovqatlantirishni tashkil etishni monitoring qiladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;

bo'lim vakolatiga tegishli bo'lgan operativ, tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish xo'jalik masalalari va boshqa masalalar bo'yicha buyruq qabul qiladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ish amaliyotiga davlat ta'lim standartlari, ilmiy yutuqlar va ilg'or pedagogik tajribalarning tatbiq etilishiga sharoit yaratadi;

ta'til davrlarida bolalarni mazmunli dam olishlarini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini darsliklar, o'quv dasturlari va o'quv rejalari, o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv uskunolari, ta'limning texnik vositalari, qo'llanma-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash ishlarini amalga oshiradi;

maktab va pedagogika kollejlari bitiruvchilarini kollejlar va texnikumlar, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi, 9-sinf bitiruvchilarining istaklariga ko'ra umumiy o'rta ta'lim muassasalari 10-sinfida yoki akademik litseylar, kasb-hunar maktablarida ta'lim olishini davom ettirishi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktabga qamrov ko'rsatkichlarining loyiha bo'yicha quvvati bilan to'ldirilganlik koeffitsienti o'rtasidagi farqni kamaytirish choralarini ko'radi;

umumiy o'rta ta'lim hajmida, tibbiy ko'rsatmalar asosida bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim-tarbiya olishiga sharoit yaratib beradi;

ta'lim muassasalarining ota-onalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar bilan ijodiy faol, davlat mustaqilligi g'oyalariga sadoqatli va jamiyat taraqqiyotiga aniq hissa qo'shishga layoqatli shaxsni kamol toptirish bo'yicha o'zaro yaqin hamkorligini tashkil etilishini ta'minlaydi;

bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash masalalarida hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi va ulardan samarali foydalanishni hamda pedagog xodimlarni shu sohadagi malakasini oshirilishini ta'minlaydi;

o'quvchilar bilan maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choralarini ko'rish;

o'quvchilarning davomatini to'liq ta'minlash yuzasidan aniq choralar ko'rish va nazorat qilish, bu borada ta'lim muassasalarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik

jamiyatining boshqa institutlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ota-onalarning o'zaro hamkorlikdagi ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qiladi;

pedagog xodimlarni mehnatdagi yuqori ko'rsatkichlari, o'quvchi yoshlarni o'qitish va tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun davlat va tarmoq mukofotlariga belgilangan tartibda tavsiya etadi;

Respublika va mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bino va inshootlarining mavjud holati to'g'risidagi bazani shakllantirish, qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlanishi bo'yicha har yili Manzilli dasturlarni shakllantirish uchun tegishli takliflarni hududiy boshqarmaga taqdim etadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud qozonlar bo'yicha bazani shakllantirish, ko'mir va ko'mir briketlaridan samarali foydalanishni hisobga olib talabnomalar tayyorlash, shuningdek mavjud bazadan kelib chiqib, jihozlash va to'ldirib jihozlash manzilli ro'yxatlari bo'yicha takliflar beradi, manzilli ro'yxatlarni o'rganadi va shakllantiradi, ularning monitoringini yuritadi va hududiy boshqarmaga taqdim etadi;

talab bo'yicha investitsiya va boshqa dasturlarga kiritish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari obyektlari bo'yicha ma'lumotlarni hududiy boshqarmaga taqdim etadi;

byudjet tashkilotlarining sanitariya normalari va qoidalariga mosligini maqsadida tizimli ravishda ularni doimiy o'rganish, kuz-qish mavsumida bino va inshootlaridan to'g'ri foydalanish uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash choralari ko'radi;

bo'limning va markazlashgan buxgalteriya tomonidan xizmat ko'rsatiladigan ta'lim muassasalarining shtat jadvallari va xarajatlar smetalarini budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq shakllantiradi va tasdiqlaydi;

har bir muassasaning pul mablag'lari, hisob-kitob va moddiy qimmatliklar, shuningdek, boshqa aktivlar va majburiyatlar inventarizatsiyasini o'tkazadi, inventarizatsiya natijalari to'g'ri rasmiylashtirilishi hamda ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari, xarajatlar smetasi va ularning ilovalari, shuningdek, budjet tashkilotlari moliyaviy faoliyatiga oid boshqa hujjatlar hisobini har bir muassasa kesimida alohida yuritilishi va saqlanishini ta'minlaydi;

bo'lim apparati va markazlashgan mablag'lari xarajatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, bo'limning moddiy boyliklari, xodimlarning mehnatiga haq to'lash va bo'lim faoliyatiga doir boshqa xizmatlar bo'yicha amaldagi qonunchilik talablariga asosan hisob-kitoblarni amalga oshiradi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim tashkilotlarining sinf komplektlarini amaldagi qonunchilikda belgilangan me'yorlar asosida o'quvchilar bilan to'ldirilishini ta'minlaydi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetalari, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro'yxatlarini o'z vaqtida shakllantirilishini, tasdiqlanishini hamda zarur hollarda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlaydi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan umumta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar to'lanishini, shuningdek, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa talabnomalarni o'z vaqtida taqdim etilishini va to'lanishini ta'minlaydi;

bo'lim tasarrufidagi tashkilot va muassasalarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish ishlariga umumiy rahbarlik qiladi, muassasalardan ma'lumotlarni yig'ib umumlashtiradi va hududiy boshqarmaga taqdim etadi;

buxgalteriya hisobi va hisobotini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritish, shuningdek hisob ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etadi;

tizimda odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash; korrupsiyaga qarshi kurash, aniqlangan qonun buzilishi holatlarini, ularni sodir etishga imkon yaratuvchi sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish, oldini olish choralarini ko'radi.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

#### **4-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatlari.**

11. Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tuman (shahar) bo'linmalaridan o'z vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda so'rab olish;

o'z vakolati doirasida takliflarni ko'rib chiqish uchun tegishli hududiy boshqarma va mahalliy hokimliklarga kiritish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatiga (metodik yordam berish);

o'z vakolatlari doirasida seminarlar, ko'rgazmalar o'tkazish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan shunday tadbirlarda ishtirok etish;

o'z faoliyatini keng yoritish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalarini yaratish;

hay'at yig'ilishlarida bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12. Bo'lim majburiyatlari:

Bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

hududiy boshqarmaga kiritiladigan hujjatlar loyihalari va takliflar, shuningdek, bo'lim tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ijrosini ta'minlash;

maktabgacha va maktab ta'limi sohasida dolzarb muammolarni, aholini qiynayotgan masalalarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi sohasini rivojlantirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va muammoli masalalarni hal qilish bo'yicha dasturlar, "yo'l xaritalari" va boshqa hujjatlarda belgilangan topshiriqlarning tegishliligi bo'yicha samarali amalga oshirilishi uchun javob beradi.

#### **5-bob.Bo'lim faoliyatini tashkil etish**

13. Bo'limga hududiy boshqarma boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

Bo'lim boshlig'i bo'lmagan davrda uning vakolatlari hududiy boshqarma boshlig'i buyrug'i bilan tayinlangan mas'ul shaxsga yuklatiladi.

14. Bo'lim boshlig'i idoraviy mansub ta'lim muassasalarining nizomini o'rnatilgan tartibda tasdiqlaydi.

15. Bo'limning shtat jadvali o'rnatilgan tartibda bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

16. Bo'limning tarkibiy bo'linmalari hududiy boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlik qiladi, jumladan:

hududiy boshqarma rahbariyati topshiriqlari ijrosi haqida axborot beradi;

maktabgacha va maktab ta'limi sohasida qonun hujjatlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyat natijalari to'g'risida hududiy boshqarmaga axborot taqdim etadi;

ularning faoliyatini o'rganish natijasida aniqlangan ishdagi kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish natijalari to'g'risida ma'lumot beradi;

o'z faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda hududiy boshqarmaga taqdim etadi;

maktabgacha va maktab ta'limi muammolarini hal qilishga qaratilgan takliflarni hududiy boshqarmaga taqdim etadi;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro hamkorlik natijalari to'g'risida axborot beradi;

vakolatli organlar tomonidan o'tkazilgan o'z faoliyatini tekshirish natijalari to'g'risida xabar beradi.

17. Shtat jadvaliga muvofiq belgilangan xodimlar idoraviy mansub tashkilotlar bilan o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha hamkorlik qilib:

topshiriqlarni idoraviy mansub tashkilotlarga yetkazadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

idoraviy mansub tashkilotlarga tarkibiy bo'linmaning bevosita faoliyati masalalari bo'yicha so'rovlar yuboradi hamda ularning ijro etilishini nazorat qiladi;

idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini umumlashtiradi, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini tashkil etish va faoliyati natijalari to'g'risida hisobot va axborot materiallari, statistik va boshqa ma'lumotlar o'rganilishini tashkil etadi;

idoraviy mansub tashkilotlar ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ko'radi;

idoraviy mansub tashkilotlardan tushgan takliflarni ko'rib chiqadi, yuqori turuvchi idoralar vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflarni bo'lim boshlig'iga kiritadi.

18. Bo'lim o'z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda o'z vakolati doirasida boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

19. Bo'lim tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishda va analga oshirishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro yaqin hamkorlik qiladi.

#### **6-bob. Bo'limni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish**

20. Bo'limning moddiy-texnik ta'minoti va xodimlari mehnatiga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

21. Bo'lim faoliyati davomida xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda ijtimoiy muhofaza qilishni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

22. Bo'lim xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalar, moddiy rag'batlantirish, moddiy yordam va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat bo'ladi.

23 . Bo'lim xodimlariga oylik ustamalar va moddiy rag'batlantirishlar tarzidagi lavozim maoshlariga qo'shimcha to'lovlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq to'lanadi.

#### **7-bob. Yakunlovchi qoida**

24. Bo'limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI XODIMLARINING LAVOZIM MAJBURIYATLARI**

Mazkur namunaviy lavozim majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) tizimidagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar) xodimlarining funksional majburiyatlarini belgilab beradi.

### **1. Direktorning lavozim majburiyatlari**

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, pedagogik kengashga raislik qilish, muassasaning tashkiliy-huquqiy, o‘quv-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy hamda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining tashkil etilishini ta’minlash;

Pedagogik kengash bilan birgalikda ta’lim muassasasini rivojlantirish strategiyasi, maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiya jarayonini va ta’lim sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

ta’lim muassasasining yillik ish rejasini tasdiqlash hamda tegishliligi bo‘yicha xodimlar tomonidan o‘quv rejasining bajarilishini nazorat qilish;

dars, korreksion mashg‘ulotlar hamda shtatlar jadvallari va tarifikatsiya ro‘yxatlari, mehnat ta’ili jadvalini tasdiqlash;

o‘quv jarayoniga innovatsion va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etishga sharoit yaratish, zamonaviy ta’lim usullari va resurslarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;

ta’lim muassasasi faoliyatining moliyaviy-xo‘jalik masalalarini hal qilish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning shakllanishi, undan samarali foydalanishini amalga oshirish, ta’lim muassasasini rivojlantirish uchun byudjetdan tashqari qo‘shimcha mablag‘ topish va moddiy resurslar bilan ta’minlash choralari ko‘rish, ta’lim muassasasining investitsion jozibadorligini ta’minlash, shuningdek, ta’limiy maqsadlarga erishish uchun moliyaviy, moddiy resurslarning samarali taqsimotini va xodimlarning safarbarligini ta’minlash hamda qabul qilingan qarorlarning oqibatlari, moliyaviy-xo‘jalik natijalariga shaxsan javob berish;

korxonalar, muassasa va tashkilotlar bilan xo‘jalik shartnomalari tuzishda ta’lim muassasasi nomidan faoliyat yuritish, uning manfaatlarini himoya qilish, ishonchnomalar berish;

turli yo‘nalishlardagi davlat va nodavlat jamg‘armalar bilan o‘zaro hamkorlikda ish yuritish, Kuzatuv va pedagogik kengash hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta’lim muassasasini rivojlantirish bo‘yicha strategik rejalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, ta’lim muassasasining yuksak vazifa va maqsadlarini shakllantirish ishlarini tashkil etish;

o‘quv jihozlari, qurilmalari va boshqa ta’lim vositalarining saqlanishini ta’minlash, ta’lim muassasasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlarini tashkil etish, mol-mulkdan samarali foydalanish va ularning saqlanishiga javobgar bo‘lish;



muassasani yangi o'quv yili, kuz-qish mavsumiga tayyor bo'lishini ta'minlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkillashtirish, muassasani qabul qilish dalolatnomalarini imzolash;

muassasani malakali kadrlar bilan ta'minlash, pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, uni qoplash choralarini ko'rish, o'quvchilar orasidan iqtidorlilarni tanlab pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash va ijrosini ta'minlash, tegishli malaka va kompetensiyalarga ega xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish, ular o'rtasida vazifalarni oqilona va adolatli taqsimlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish, pedagog xodimlar attestatsiyasini tashkil qilishda ishtirok etish hamda ijro, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilinishini ta'minlash, xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

o'qituvchilar malakasini oshirish ishlarida ijobiy, konstruktiv va rag'batlantiruvchi muhit yaratish, ularning tashabbuskorligi va faolligini oshirish, o'qituvchilar malakasini oshirish jadvali va ta'lim muassasasi ehtiyojlariga mos ravishda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish dasturini ishlab chiqish hamda pedagog xodimlarni rag'batlantirish uchun davlat ta'lim standartlari va talablarining bajarilishini xolis baholashni tashkil qilish;

ta'lim muassasasi bitiruvchilarini oliy hamda boshlang'ich professional ta'lim muassasalariga o'qishga kirish hamda ishga joylashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilash choralarini ko'rish;

jamoada sog'lom ma'naviy-ruhiy, xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish;

o'quvchilarning bilimlari sifatini davlat ta'lim standartlari va talablariga mos kelishini, tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlash va nazorat qilish, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishini yaxshilash va ularga sifatli ta'lim berish maqsadida ta'lim muassasasini uzluksiz rivojlantirish choralarini ko'rish;

o'quvchilarni psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi hamda tegishli yo'llanma orqali ta'lim muassasasiga qabul qilish va sinfdan-sinfga o'tkazish va bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish ishlarini (erp baza) tashkil qilish, o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashga va har birining imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

ta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim va korreksion ishlarni tizimli va parallel ravishda olib borilishini ta'minlash;

o'quvchilarni darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalari bilan ta'minlash ishlarini tashkil etish;

ota-onalar, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish bo'yicha hamkorlikni tashkil qilish;

bolalikni himoya qilish bo'yicha, voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari xavfsizligini muhofaza qilishga oid talablarga rioya qilinishini ta'minlash;

internat turidagi ta'lim muassasalarida yotoqxonaga muhtoj o'quvchilar kontingentini aniqlash va ular uchun kerakli yashash va ovqatlanish sharoitlarini yaratish;

o'quvchilarni milliy an'analar, urf-odatlar bo'yicha tarbiyalashga, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, vataniga va xalqiga sodiq fuqaro sifatida tarbiyalash;

ta'lim muassasasi xodimlari orasidagi eng faollarini rag'batlantirish, lavozim vazifalarini bajarmaganligi uchun ularga nisbatan o'z vakolati doirasida intizomiy jazo choralarini qo'llash;

o'quvchilarni ichimlik suvi bilan ta'minlash va bolalar uchun qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish.

ta'lim muassasasining mulkiy manfaatlarini sudda, hakamlik sudida, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida himoya qilish;

ta'lim muassasasi faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning, murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish, shuningdek muassasa xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

foydalanish uchun topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda tegishli tartibda ro'yxatdan chiqarishni ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **2. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining lavozim majburiyatlari**

O'quv jarayonini tashkil qilish, davlat ta'lim standartlari va talablariga muvofiq o'quv-tarbiyaviy rejalar va dasturlarning bajarilishini ta'minlash;

o'qituvchi xodimga belgilangan ish yuklamasini, jumladan, o'quv jarayoni, o'quv jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonlarga oid ishlarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish va ta'minlash;

ta'lim standartlari va talablari bajarilishini nazorat qilish, o'quvchilarning o'zlashtirishi va xulqining monitoringini amalga oshirish, korreksion mashg'ulotlar va fan to'garaklarining ishlashini tashkil qilish;

tayanch o'quv rejaga muvofiq dars jadvallarini sanitariya qoidalari va me'yorlari inobatga olgan holda tuzish;

o'qituvchilarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etish, o'quv-metodik va korreksion ishlariga rahbarlik qilish, o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini o'rganish, ommalashtirish va umumlashtirishni tashkil etish;

o'qituvchilar faoliyatining yillik rejasini ishlab chiqilishini va bajarilishini nazorat qilish, darslar, korreksion mashg'ulotlar, bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy davlat attestatsiyasi jadvallari va boshqa o'quv tadbirlarini ishlab chiqish;

fan o'qituvchilari tomonidan dars va korreksion mashg'ulotlarining tasdiqlangan jadvali hamda taqvim-mavzu reja asosida olib borilishini nazorat qilish;

fan o'qituvchilari tomonidan taqvim-mavzu reja asosida o'tilgan mavzularni, o'quvchilarning o'tilgan mavzularni o'zlashtirish bahosini dars o'tilgan kunning o'zida sinf jurnallariga (elektron jurnallarga) qayd etilishini nazorat qilish;

fan o'qituvchilari tomonidan joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlarining reja asosida o'tkazilishi, o'quvchilarning yozma ishlari va daftarlarini tekshirilishini nazorat qilish, zarur hollarda, metodik tavsiyalar berish;

fan o'qituvchilari, tarbiyachilar tomonidan o'tiladigan darslar va korreksion mashg'ulotni tahlil qilish, metodik tavsiyalar berish;

fan o'qituvchilari tomonidan fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida tashkil etilgan to'garak mashg'ulotlarini tasdiqlangan jadval asosida olib borilishini ta'minlash va nazorat qilish;

an'anaviy malaka oshirish tizimi amal qilayotgan hududlarda fan o'qituvchilarining belgilangan muddatlarda malaka oshirish kurslarida o'qishlarini ta'minlash (uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy qilingan hududlarda, shu jumladan elektron malaka oshirish tizimlari orqali, pedagog xodimlarning malakasini oshirilishi o'qituvchining shaxsiy mas'uliyati hisoblanadi);

tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelib qolgan dars mashg'ulotlarining mavzulari o'quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda (mavzularni tig'izlashtirilgan holda) keyingi dars mashg'ulotlarida o'tilishini ta'minlash;

an'anaviy shakldagi sinf jurnallaridan foydalanilayotgan ta'lim muassasalari sinf jurnallarining (elektron jurnal joriy etilgan ta'lim muassasalarida faqatgina sinflar bo'yicha yillik hisobotning bosma talqini) saqlanishini ta'minlash;

o'qituvchilarning tarifikatsiya ro'yxatini shakllantirish va uni elektron dasturga kiritish;

o'qituvchining ma'lumoti va malaka toifasiga ko'ra amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra ularga darslarni to'g'ri taqsimlashda, shuningdek, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonlarida ishtirok etish;

o'quv mashg'ulotlar va ta'lim faoliyati boshqa turlarining jadvalini tuzish, ishda vaqtinchalik bo'lmagan o'qituvchilarning dars soatlari o'z vaqtida almashtirilishini, qoldirilgan va boshqa o'qituvchi o'rniga o'tilgan darslarni qayd etish jurnalini yuritilishini ta'minlash;

o'quvchilarni belgilangan me'yorlar asosida bitta sinfga jamlash, ya'ni sinflar komplektini shakllantirish;

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi asosida dars soatlari setkasini (sinflar soni, sinf komplektidagi o'quvchilar soni va tegishli mutaxassislik bo'yicha o'qituvchilar mavjudligini inobatga olgan holda barcha fanlar bo'yicha shakllantirilgan jami dars soatlarini) tayyorlash;

boshqa umumta'lim muassasalaridan kelgan va ketgan o'quvchilarni ta'lim muassasasi direktori buyrug'i asosida o'quvchilar ro'yxatiga (sanoqqa) kiritish yoki chiqarish (erp baza);

muassasaning yillik ish rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish va fanlar bo'yicha metodbirlashma yig'ilishlarini o'tkazilishini nazorat qilish;

o'qituvchilar tomonidan namunaviy darslarni tashkil etilishini ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktori vaqtincha ishda bo'lmagan hollarda pedagogik kengashni o'tkazish;

o'qituvchilarni rag'batlantirish, ularga oylik ustamalar belgilash va mukofotlash, moddiy yordam berishda ishtirok etish;

psixologlar va o'qituvchilarning maktab yoshidagi bolalarni ta'limga jalb etish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va bitiruvchilarni OTM ga tayyorlash ishlariga rahbarlik qilish;

ta'lim samaradorligi bo'yicha ichki nazoratni tashkil etish bo'yicha metodbirlashmalar faoliyatini nazorat qilish;

yo'nalish yuzasidan o'ziga birlashtirilgan xodimlari tarkibining ish vaqtini hisobga olish tabelini yuritish;

muassasada avgust kengash(milliy forum)larini tashkil etish,

pedagogik kengash, o'quv-seminar, ochiq darslarda ishtirok etish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining lavozim majburiyatlari**

Ta'lim muassasasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil qilish;

tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiqish, ijrosini nazorat qilish;

tarbiyachi va tarbiyachi yordamchilarining belgilangan ish yuklamasini, jumladan, tarbiya jarayoni, tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonlarga oid ishlarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish va ta'minlash;

tarbiyachi va tarbiyachi yordamchilari faoliyatining yillik rejasini ishlab chiqilishini va bajarilishini nazorat qilish;

ta'lim muassasasi o'quvchilari hamda pedagoglari ishtirokidagi ma'naviy-ma'rifiy xarakterdagi tadbirlarning sifati va samaradorligi monitoringini amalga oshirish;

tarbiyachilar, o'qituvchilar tomonidan o'tiladigan mashg'ulotlarni tahlil qilish, metodik tavsiyalar berish;

tarbiyachilarning belgilangan muddatlarda malaka oshirish kurslarida o'qishlarini ta'minlash;

tarbiya guruhlarini va tarbiyachilarning tarifikatsiya ro'yxatini shakllantirish va uni elektron dasturga kiritish;

yo'nalish yuzasidan o'ziga birlashtirilgan xodimlari tarkibining ish vaqtini hisobga olish tabelini yuritish;

mashg'ulotlar va ta'lim faoliyati boshqa turlarining jadvalini tuzish, ishda vaqtinchalik bo'lmagan tarbiyachilarning ish vaqtini almashtirilishini, qoldirilgan va boshqa tarbiyachi o'rniga ishlangan vaqtini qayd etish jurnalini yuritilishini ta'minlash;

ta'lim muassasasida turli to'garaklar va sport seksiyalarining faoliyat yuritishini ta'minlash, o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ularni to'garaklarga jalb etish ishlarini muvofiqlashtirish;

milliy an'analar, tarixiy qadriyatlar va buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi asosida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil qilish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yozgi ta'til davrida ularning kunduzgi dam olish oromgohlarida dam olishi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar sifati va natijalarini tahlil qilish;

sinf rahbarlarining sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy faoliyatiga rahbarlik qilish, ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar holati va natijalarini monitoring qilish, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlik qilish;

o'quvchilarning tartib-intizomi va davomati, tarbiyaviy ishlar samaradorligini nazorat qilish;

o'quv yili davomida har juma kuni tashkil yetiladigan "Sinf soati" darslarining o'tkazilishi samaradorligini monitoring qilish;

o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari bo'yicha huquq-tartibot, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ichki ishlar profilaktik hisobiga, ta'lim muassasasi ichki ro'yxatiga olingan o'quvchilar hisobi va hisobotini yuritish, ular bilan profilaktik tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash;

ta'lim muassasasida "xavf guruhi"ga kiruvchi (notinch, nosog'lom, to'liq bo'lmagan oila) o'quvchilarning umumiy ro'yxatini shakllantirish, ular bilan individual yondashuv asosida alohida tarbiyaviy ishlar olib borilishini tashkil etish;

sportchilar, jamoat arboblari, urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, ijodiy kechalar va boshqa tadbirlar o'tkazilishini tashkil qilish;

pedagog xodimlar uchun o'quv-yili davomida har oyning uchinchi jumasida ma'naviy-ma'rifiy harakterdagi tadbirlarni tashkil etish;

voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishining, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan "O'quvchi", "Davomat", "Tig'" kabi profilaktik reydlarda ishtirok etish;

sinf rahbarlari, ta'lim muassasasi psixologlari ish faoliyatini muvofiqlashtirish;

tarbiyaviy ishlar yuzasidan sinf rahbarlarining hisobotlarini eshitish, pedagogik kengashlarda umumiy hisobot berish;

o'quvchilar o'rtasida Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

o'quvchilar bilan ishlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini tarbiya jarayoniga tatbiq etish, o'quvchilarda mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirish;

"Oila — mahalla — ta'lim muassasasi hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, reja asosida kengash majlislarini tashkil etish;

o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan ta'lim muassasasi formasida kelishlarini nazorat qilish;

o'quvchilarning turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, targ'ibot ishlarini tashkil etish;

o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bo'yicha ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish;

darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilarning ota-onalari, huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish, natijalarini reja asosida direktor huzuridagi yig'ilishlarda muhokama etib borish;

qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish ishlarini tashkil etish;

sinf rahbarlari bilan birgalikda o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlagan holda sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari, ekskursiya, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishga, sayohatlar uyushtirishga bevosita rahbarlik qilish;

"O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom", "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'qituvchi va o'quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari", "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona ta'lim muassasasi formasini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizomning mazmun-mohiyatini va talablarini ta'lim muassasasining har bir xodimi, o'quvchilari, ularning ota-onalari e'tiboriga yetkazish, ular tomonidan rioya yetilishini nazorat qilish;

ta'lim muassasasining o'quv va boshqa xonalarini o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid masalalarni hal qilishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot vositalari bilan jihozlashni tashkil qilish;

pedagog xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etish, yuqori malakali tarbiyachilarning ilg'or pedagogik tajribasini o'rganish, umumlashtirish va ularni ommalashtirish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **4. O'qituvchining lavozim majburiyatlari**

Pedagogik xodimga belgilangan ish yuklamasini, jumladan, o'quv-korreksion jarayoni, o'quv-korreksion jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonlarga oid ishlarni o'z vaqtida bajarish;

o'z faoliyatini olib borish uchun tanlagan ta'lim muassasasining yo'nalish bo'yicha bilimlarga ega bo'lish zarurligi, xususan, "Nurli maskan" ta'lim muassasalarida brayl alifbosi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda imo-ishora va daktil nutqni bilish va qo'llay olishi, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda logopediya va psixonevrologiya bilimlarini bilish;

dars va korreksion mashg'ulotlarni ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan dars jadvali hamda taqvim-mavzu reja asosida olib borish;

ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'z fani bo'yicha tarqatma va ko'rgazmali materiallarni tayyorlaydi (markazlashgan holda, jumladan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan taqdim yoki tavsiya etiladigan ta'lim portallarida elektron shakldagi tarqatma va ko'rgazmali materiallar bo'lmasa) va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish;

o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish;

o'quvchilarda o'z fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, dars jarayonida o'quvchilarning odob-axloq qoidalarga rioya qilishini ta'minlash;

o'z fani bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini o'tkazadi, o'quvchilarning yozma ishlari va daftarlarini tekshirish;

davlat ta'lim standarti va talablari, o'quv dasturlariga muvofiq o'z fani bo'yicha taqvim-mavzu rejalarni tuzish;

o'z ehtiyojiga ko'ra fan o'qituvchilari tomonidan o'tiladigan darslarni kuzatish, dars tahlili natijasida o'zaro tajriba almashish;

pedagogik kengash, metodbirlashma yig'ilishlari, o'quv-seminar, ochiq darslar va metodik materiallar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'z fani bo'yicha taqvim-mavzu reja asosida o'tilgan mavzularni, o'quvchilarning o'tilgan mavzularni o'zlashtirish bahosini va davomatini dars o'tilgan kunning o'zida sinf

jurnallariga qayd etish (bunda elektron jurnal joriy etilgan umumta'lim muassasalarida an'anaviy jurnalga baholashga yo'l qo'yilmaydi hamda elektron avtomatik davomat joriy qilingan ta'lim muassasalarda davomatni qayd etish o'qituvchining vazifasiga kirmaydi);

o'quvchilarning imkoniyatlarni inobatga olgan xolda qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida o'z fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish;

o'quvchilarni o'z fani bo'yicha fanlar olimpiadalari, turli tanlovlar va musobaqalarga tayyorlash;

o'z fani bo'yicha o'zining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlash, ilg'or ta'lim metodlarini o'rganish va doimiy ravishda malakasini oshirib borish choralarini ko'rish;

o'ziga biriktirilgan sinf xonalari, texnik vositalar, boshqa moddiy boyliklarning saqlanishini va ulardan o'quv-metodik maqsadlarda samarali foydalanishni ta'minlash;

ta'lim muassasasi rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga amal qilish;

o'quvchilar huquqlariga va bolalarni muhofaza qilishga oid qonunchilik talablariga rioya qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **5. O'qituvchi-logopedning lavozim majburiyatlari**

O'quvchilarning nutqini rivojlanishidagi muammolarni tuzatishga qaratilgan ishlarni olib borish, ularni tekshirish orqali mavjud bo'lgan nuqson tarkibi va ifodalanish darajasini aniqlash;

o'z faoliyatini olib borish uchun tanlagan ta'lim muassasasining yo'nalish bo'yicha bilimlarga ega bo'lish zarurligi, xususan, "Nurli maskan" ta'lim muassasalarida brayl alifbosi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda imo-ishora va daktil nutqni bilish va qo'llay olishi, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda logopediya va psixonevrologiya bilimlarini bilish;

o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish;

murakkab nutq nuqsoniga ega bo'lgan, jismoniy va psixik rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borish;

mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning nutq a'zolarini tizimli ravishda kuzatib borish;

o'quvchining o'quv dasturlarini ongli ravishda tanlashi va o'zlashtirishiga ko'maklashish;

o'quvchilar nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir logopedik bilimlarni ta'lim jarayoni ishtirokchilari, o'qituvchilar va aholi o'rtasida targ'ib qilish;

ularning ruhiy-jismoniy holatini hisobga olgan holda mashg'ulotlar o'tkazish uchun guruhlar tashkil qilish, guruhlarda va individual tartibda ularning rivojlanishidagi muammolarni tuzatish, nosoz funksiyalarni tuzatish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

o'qituvchi va tarbiyachilar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, mashg'ulot va darslarida ishtirok etish, pedagog xodimlar va ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ga nutqiy rivojlanishida muammosi mavjud bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatishning maxsus metodlari va usullarini qo'llash bo'yicha maslahatlar berish hamda ular faoliyati bilan bog'liq zaruriy hujjatlarni yuritish;

shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirishda, uning ijtimoiylashishida kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va o'zlashtirishda ko'maklashish, davlat standartlari doirasida ta'lim berishning turli shakllari, metodlari va vositalarini qo'llash, ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

o'quvchilarni Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan huquqlarga rioya qilish va erkinliklarini ta'minlash;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib boradi, metodik uyushmalar faoliyatida va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

ta'lim jarayonida o'quvchilarning hayotini va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga ko'maklashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **6. Psixologning lavozim majburiyatlari**

O'quvchilarni muassasalarda tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish;

o'z faoliyatini olib borish uchun tanlagan ta'lim muassasasining yo'nalish bo'yicha bilimlarga ega bo'lish zarurligi, "Nurli maskan" ta'lim muassasalarida brayl alifbosi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda imo-ishora va daktil nutqni bilish va qo'llay olishi, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda logopediya va psixonevrologiya bilimlarini bilish;

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta'lim muassasasi ijtimoiy sohasini uyg'unlashtirishga ko'maklashish va ijtimoiy



jihatdan ko'nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

o'quvchilar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, reabilitatsiya va konsultatsiya) berish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi, o'quvchilar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), pedagogik jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordamlashish;

turli yo'nalish va maqsadlarda psixologik diagnostika o'tkazish, ruhiy, jismoniy va aqliy qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o'tkazish, test natijalarini tahlil qilish va baholash;

bola ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, bu borada tegishli davlat idoralari bilan hamkorlik ishlarini olib borish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;

o'quvchilar shaxsining individual yosh xususiyatlari, jinsini hisobga olib ta'lim faoliyatining rivojlantiruvchi va tuzatuvchi dasturlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda hayotiy va kasbga yo'nalish olishning turli vaziyatlariga moslashuvchanlikka tayyorgarlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni to'liq qamrab olinishi bo'yicha ish olib borish hamda interaktiv so'rovnomalar o'tkazish va shu asosda kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma'lumotlar bazasi yaratish;

emotsional-hissiy zo'riqishlar, xavotirlik darajasi yuqori va o'ziga ishonchi past bo'lgan bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida seminar-treninglar hamda soha mutaxassislari bilan davra suhbatlarini tashkil etish, shuningdek, kasbiy moyilligi bo'yicha professional ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish;

ta'lim muassasasi bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yuzasidan o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni, ota-onalar va pedagoglar to'liq qamrab olingani va o'quvchi-yoshlar o'rtasida deviant xulq atvor ko'rinishlarining (zo'ravonlik, o'z joniga qasd qilish, erta tug'ruq) oldini olish;

iqtidorli o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi va izlanishlariga ko'maklashish;

o'quvchilarning rivojlanishidagi (aqliy, jismoniy, hissiy), turli ko'rinishdagi ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni psixologik-pedagogik jihatdan tuzatishni amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ishlarni olib borish;

o'quvchilarning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ishlarini olib borish;

o'qituvchilar jamoasi va ota-onalarga o'quvchilarning shaxs va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi muammolari bo'yicha yo'nalish berish maqsadida o'rganish natijalariga ko'ra psixologik-pedagogik xulosa tayyorlash;

ta'lim muassasasi xodimlarini o'quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ijtimoiy-psixologik xabardorlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan psixologiyani amalda qo'llash, muassasaning rivojlanishi masalalarida maslahatlar berish;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **7. Tarbiyachining lavozim majburiyatlari**

Biriktirilgan guruh bo'yicha o'quvchilarda o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga ijobiy munosabat shakllantirish, mavjud qonunlarga, mehnatga, ota-onalarga, ma'naviy, tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

o'z faoliyatini olib borish uchun tanlagan ta'lim muassasasining yo'nalish bo'yicha bilimlarga ega bo'lish zarurligi, xususan, "Nurli maskan" ta'lim muassasalarida brayl alifbosi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda imo-ishora va daktil nutqni bilish va qo'llay olishi, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda logopediya va psixonevrologiya bilimlarini bilish;

o'quvchilarda ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining, o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga ko'maklashish;

tarbiyalanuvchilarning kundalik hayoti va faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish;

tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiyasi, ijtimoiy va mehnat adaptatsiyasi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash;

tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy moslashuvi, jamiyatga integratsiyasi va mustaqil hayotga tayyorlash, bolalar rehabilitatsiyasi va korreksiyasi sohasida samarali ish metodlari, shakllari va vositalarini qo'llash;

ixtisoslashgan yo'nalishga mos ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini yangi zamonaviy talablar asosida tashkil qilish;

ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsni vatanparvarlik ruhida, milliy an'ana va qadriyatlar, buyuk ajdodlarimiz ibratli hayoti namunalari asosida tashkil etish;

direktor o‘rinbosarlari bilan birga tarbiyalanuvchilarning davomati, o‘quv fanlarining o‘zlashtirish monitoringini olib borish, tarbiyalanuvchilarning kundalik uy vazifasini bajarilishini nazorat qilish va ko‘maklashish;

tarbiyalanuvchilar tomonidan shaxsiy gigiyena talablariga rioya qilinishi, kiyinishi, tashqi ko‘rinishining ozodaligi, o‘quv jihozlari va xo‘jalik buyumlarini saqlanishi ta‘minlash;

tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ko‘maklashuvchi tadbirlarni amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilar bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishiga ko‘maklashish, qo‘shimcha ta‘lim olishiga yordam berish;

tarbiyalanuvchilar yoshiga mos ravishda va shifokor tavsiyalariga ko‘ra o‘z-o‘ziga xizmat qilishni, mehnat muhofazasi, mehnat xavfsizligiga rioya etilishini ta‘minlash, ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish;

sanitariya-gigiena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilishga o‘rgatish;

kasbiy odob-axloqning umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalariga amal qilish;

xavfsiz ta‘lim muhitini ta‘minlashda tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish;

tarbiya ishlarining zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakllari va usullarini mashg‘ulotda va mashg‘ulotdan tashqari ishlarda qo‘llash;

tarbiyalanuvchilarning tabiati va qobiliyatlaridan qat‘iy nazar, rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ta‘lim maqsadlarini belgilash;

ta‘lim muassasaning ustavi va ichki qoidalariga muvofiq tarbiyalanuvchilar tomonidan aniq odob-axloq qoidalarini aniqlash va belgilash;

tarbiya dasturlarini loyihalashtirish va amalga oshirish;

ta‘lim muassasaning hayotidagi turmush tarzini, muhitini va an‘analarini yaratish, saqlab turish;

tarbiyalanuvchilarning turli xil kontingentlari, shu jumladan ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida: iqtidorli bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, qiyin hayot sharoitida bo‘lgan bolalar, migrant bolalar, yetim bolalar, xulq-atvorida og‘ish bor bolalar, giyohvandlikka chalingan bolalar bilan maqsadli ishlash uchun zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik texnologiyalarni (shuningdek, inklyuziv) o‘zlashtirish va qo‘llash;

Psixologik-tibbiy-pedagogik kengash doirasida boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

bolaning individual rivojlanishi uchun dasturlarni ishlab chiqish (boshqa mutaxassislar bilan birgalikda) va ota-onalar (qonuniy vakillar) bilan birgalikda amalga oshirish;

korreksion-rivojlantirish ishlarini amalga oshirishga imkon beradigan maxsus texnologiyalar va usullarni o‘zlashtirish va qo‘llash;

virtual haqiqat dunyosida va ijtimoiy tarmoqlarda universal tolerantlik harakatlari, ijtimoiy xulq-atvorning shakllari va qadriyatlarini, o‘zini tutish ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish, bag‘rikenglik va polimadaniyatli muloqotning ijobiy shakllarini shakllantirish;

tarbiyalanuvchilarning xulq-atvori va faoliyatini tartibga solish tizimini shakllantirish;

tarbiyalanuvchilarning xulq-atvori va shaxsiy muammolarini kuzatish paytida muassasalarda ta‘lim va tarbiya berish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda tarbiyalanuvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

imkoniyatli (to'siqsiz) muhitni yaratish, binolarda tuzatish va moslashish sinflari uchun bolalarning erkin harakatlanishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

diagnostika va sanitariya-gigiyena madaniyati darajasini baholash vositalaridan hamda bola sog'lig'ini saqlash ko'rsatkichlari darajasi va dinamikasi usullaridan foydalanish;

tarbiyalanuvchilarga sog'lom bolalar bilan maktablarda o'qish imkoniyatini berishda ularga manzilli yordam ko'rsatish;

sanitariya qoidalari va me'yorlari doirasida boshqa mutaxassislar bilan o'zaro aloqalar, ayniqsa, epidemiya yoki pandemiyani kuzatish davrida ularning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan eng maqbul va qulay sharoitlarni yaratish.

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning munosib individual rivojlanishi uchun sanitariya-gigiyena madaniyati darajasini, shuningdek muassasa gigiyenasini yaxshilash dasturlarini ijrosini ta'minlash (boshqa mutaxassislar hamkorligida) va ota-onalar (qonuniy vakillar) bilan birgalikda amalga oshirish

yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun maxsus texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish va ulardan yetarli darajada foydalanish

muassasaning sanitariya qoidalari talablarini bajarish

tarbiyalanuvchilar o'rtasida sog'lom va xavfsiz turmush madaniyatini shakllantirish

muassasa direktori tomonidan tasdiqlangan kun tartibi asosida o'quvchilar bilan ish olib borish (ovqatlanish, darslarga tayyorgarlik, yotoqxonada tartib-intizom qoidalariga rioya qilish va hokazolarni nazorat qilish);

o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqalar o'rnatish va farzandining ta'lim-tarbiyasini yana-da yaxshilash yuzasidan fikrlar almashish, taklif va tavsiyalar berish;

o'quvchilarning ovqatlanishini tashkil etishda ko'maklashish;

o'quvchilar bilan yo'l harakati va texnika xavfsizligi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, ijtimoiy hayot uchun maqbul bo'lmagan xatti-harakatlar qilishdan saqlanish bo'yicha suhbatlar o'tkazib, tushuntirish ishlarini olib borish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **8. Kutubxona mudirining lavozim majburiyatlari**

Ta'lim muassasalarida ta'lim tili, sinflar va o'quv fanlari kesimida darsliklar va o'quv-metodik majmualarga bo'lgan ehtiyojini o'rganib, ularga buyurtma berilishini tashkil etish;

kutubxonada darsliklar va o'quv-metodik majmualarning inventarizatsiyasini o'tkazadi va ular asosida yetishmayotgan darsliklar bo'yicha ta'lim muassasasi direktor orqali tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga takliflar kiritish;

yangi o'quv yiliga "Transport va logistika" davlat unitar korxonasi hududiy filiallari tomonidan olib kelinadigan har bir darsliklar va o'quv-metodik majmualarni o'rnatilgan tartibda qabul qilish, darsliklar va o'quv-metodik majmualarni qabul qilish bo'yicha ta'lim muassasasida tashkil etiladigan komissiyada ishtirok etish, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish;

xatlov natijasida ta'lim muassasasida yaroqsiz holga kelgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni utilizatsiya qilish bo'yicha rejasini tayyorlash, o'rnatilgan tartibda tasdiqlatish hamda umumlashtirish uchun tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga taqdim etish;

tasdiqlangan reja asosida utilizatsiya qilinadigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni "Transport va logistika" davlat unitar korxonasi hududiy filialiga topshirish;

"Kitobxonlar bayrami" tadbiri doirasida ("Adabiyot kunlari", "Kitobim oftobim", "Kitob taqdimoti" nomli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Yilning eng yaxshi kitobxon ta'lim muassasasi" tanlovi, "Ta'lim muassasasi – kutubxona – oila — jamoat tashkilotlari" xayriya tadbiri va ota-onalar o'rtasida "Bir farzandga-uch kitob" aksiyasi, "Men sevgan adabiy qahramon", "Yil hikoyasi", "Yosh kitobxonlar", "Yilning eng iste'dodli yosh shoiri") tanlovlarning ta'lim muassasasi bosqichini tashkil etish;

5 ta tashabbus doirasida o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni kuchaytirish yo'nalishida tegishli mas'ullar bilan hamkorlik qilish;

faoliyat yo'nalishiga oid turli anjuman, konferensiyalar, o'quvlar, ko'rik-tanlovlar, avgust kengashlari, ilmiy-amaliy yig'ilishlarda ishtirok etish;

o'quvchilar, o'qituvchilar va tashkilotning boshqa xodimlarini kutubxonaga a'zo qiladi va kitobxonlarga berilgan kitoblar ustidan nazoratni ta'minlash;

kutubxonada va saqlash xonalarida xavfsizlik texnikasi, sanitariya, yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini kuzatib boradi va barcha turdagi kutubxona jamg'armasida saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

ta'lim muassasasi kutubxonalari uchun kutubxona–bibliografik klassifikatsiyasiga muvofiq hujjatlarning sistemali — alifboli joylashtirilishini ta'minlash;

kutubxona jamg'armasini tokchali va harfli ajratkichlar, tokchali va stendli ko'rgazmalar yordamida rasmiylashtirish;

kutubxonaning kitob va boshqa jamg'armalariga kitobxonlarning (foydalanuvchilarning) aybi bilan va kitoblar kamomadi, ularni yo'qotish yoki buzish bilan bog'liq yetkazilgan zararni o'rnatilgan tartibda undirib olish choralari ko'rish;

umumta'lim ta'lim muassasalarini badiiy adabiyotlar, darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash borasida ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish;

darsliklar va o'quv-metodik majmualarni umumiy o'rta ta'lim muassasasi kutubxona jamg'armasiga qabul qilish va hisobdan chiqarish, kitoblarining sifatli va to'g'ri yuritilishini amalga oshirish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **9. Kutubxonachining lavozim majburiyatlari**

Ta'lim muassasasida o'quvchi va o'qituvchilarning ta'lim tili, sinflar va o'quv fanlari kesimida darsliklar va o'quv-metodik majmualarga bo'lgan ehtiyojini o'rganish;

darsliklar va o'quv-metodik majmualarning inventarizatsiyasini o'tkazish va ular asosida yetishmayotgan darsliklar ro'yxatini shakllantirish;

yangi o'quv yiliga "Transport va logistika" davlat unitar korxonasi hududiy filiallari tomonidan olib kelinadigan har bir darsliklar va o'quv-metodik majmualarni o'rnatilgan tartibda qabul qilish, darsliklar va o'quv-metodik majmualarni qabul qilish bo'yicha ta'lim muassasasida tashkil etiladigan komissiyada ishtirok etish, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etish;

xatlov natijasi asosida ta'lim muassasasida yaroqsiz holga kelgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni utilizatsiya qilish bo'yicha rejasini tayyorlash, kutubxona mudiriga taqdim etish;

5 ta tashabbus doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlar o'rtasida kitobxonlikni kuchaytirish yo'nalishida tegishli mas'ullar bilan hamkorlik qilish;

faoliyat yo'nalishiga oid turli anjuman, konferensiyalar, o'quvlar, ko'rik-tanlovlar, avgust kengashlari, ilmiy-amaliy yig'ilishlarda ishtirok etish;

o'quvchilar, o'qituvchilar, muassasaning boshqa xodimlarini kutubxonaga a'zo qilish va kitobxonlarga berilgan hujjatlar ustidan nazoratni ta'minlash;

kutubxonada va saqlash xonalarida xavfsizlik texnikasi, sanitariya, yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini kuzatib borish va kutubxona jamg'armasi saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

ta'lim muassasasi kutubxonalari uchun kutubxona-bibliografik klassifikatsiyasiga muvofiq hujjatlarning sistemali-alifboli joylashtirilishini ta'minlash;

umumta'lim ta'lim muassasalarini badiiy adabiyotlar, darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash borasida ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish;

darsliklar va o'quv-metodik majmualarni ta'lim muassasasining kutubxona jamg'armasiga qabul qilish va hisobdan chiqarish kitoblarini to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 10. Kadrlar bo'yicha menejer (inspektor)ning lavozim majburiyatlari

Ta'lim muassasasida xodimlar shaxsiy tarkibining hisobini yuritish;

mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarning shaxsiy tarkibi bo'yicha buyruqlarni (ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish, mehnat shartnomasini bekor qilish, mehnat ta'tili berish va h.k.) rasmiylashtirish va ularning belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlash;

xodimlarni muassasaning ichki mehnat tartibi qoidalari bilan tanishtirish;

xodimlarning shaxsiy ish jildlarini (T-2 kartochkalar, mehnat daftarchalari, mehnat shartnomalari va h.k.) shakllantirish va yuritish, ularga o'z vaqtida xodimlarning faoliyati bilan bog'liq o'zgartirishlarni kiritish;

xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga, shuningdek, vazirlikning elektron ma'lumotlar bazasiga sifatli kiritilishi va o'z vaqtida yangilab borilishini ta'minlash, mehnat daftarchalari yuritilishi, hisobga olinishi va saqlanishini ta'minlash;

bo'sh (vakant) ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar haqida ish.mehnat.uz hamda vazirlikning ish.uzedu.uz sayti orqali e'lon berish;

xodimlarga ta'til berish hisobini yuritish, ta'tillar jadvalini tuzish;

ta'lim muassasa xodimlariga pensiyalar tayinlash, imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilash uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

xodimlarning qo'nimsizligi sabablarini o'rganish, uni pasaytirish bo'yicha muassasa direktoriga takliflar kiritish;

kadrlarga oid hujjatlarni belgilangan joriy saqlash muddatlari tugagach, uni doimiy saqlash uchun arxivga topshirish tayyorlash;

ta'lim muassasasida mehnat intizomining holati va xodimlar tomonidan ichki mehnat tartibi qoidalarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, mehnat intizomi buzilishlarining hisobini yuritish;

ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini jalb etish choralarini ko'rish yuzasidan turli tadbirlarda ish beruvchi vakili sifatida ishtirok etish;

ta'lim muassasasi direktorining ko'rsatmasi asosida ish faoliyati davomida erishib kelayotgan yutuqlari uchun pedagoglar tarkibidan O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlari va vazirlikning tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash bo'yicha nomzodlarning hujjatlarini tayyorlash, o'rnatilgan tartibda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga taqdim etilishini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kadrlar bo'yicha menejer (inspektor) o'z majburiyatlarini samarali bajarish maqsadida boshqa bo'linmalar (xodimlar)dan tegishli ma'lumot va axborotlarni so'rab olish huquqiga ega.

Kadrlar bo'yicha menejer (inspektor)ga ushbu lavozim majburiyatlariga daxldor bo'lmagan boshqa vazifa va funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **11. Tarbiyachi yordamchisining lavozim majburiyatlari**

Tarbiyalanuvchilarni ro'yxat bo'yicha tekshirib qabul qilish; guruh tarbiyachisidan ma'lumot olish;

yotoqxonadagi yumshoq va qattiq inventarlar, santexnika uskunalarining holatini tekshirish;

yong'in xavfsizligi, xonalarning sanitariya holatlari haqida to'liq ma'lumot olish;

yuqoridagi holatlarini ko'rsatgan holda navbatchilikni topshirish va qabul qilish uchun alohida tutilgan jurnalga qayd etish;

tarbiyachi va tibbiy hamshira bilan birgalikda ishni tashkil etish;

biriktirilgan tarbiyalanuvchilarga muntazam xizmat ko'rsatish, yotoqxonada ajratilgan joylarni tozaligini saqlash;

tarbiyalanuvchilarga oshxonada ovqatlanish, yuvinish va harakatlanishida yordam berish;

tarbiyalanuvchilarning buyumlari tozaligini nazorat qilish, kiyim-kechaklarini almashtirishga yordam berish;

bolalarning holati, xatti-harakatlari bo'yicha doimiy nazorat olib borish, bolaning holati yomonlashuvi aniqlanganda, harakatlarida xavf sezilganda zudlik bilan tungi tibbiy hamshiraga xabar berish;

bolalarni sog'ligini tekshirib, kunduzgi tarbiyachilardan qabul qilib olish;

o'quvchilar kechki vaqtni unumli o'tkazishini nazorat qilish;

guruhlarni tun davomida aylanib, tarbiyalanuvchilarning tungi uyqu jarayonini nazorat qilish;

bolalarni ertalabki tarbiyachilarga sog'lom va to'liq topshirish.

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

*Izoh: Muassasaga kechki va tungi tarbiyachilar ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib tayinlanadi.*



## **12. Kun uzaytirilgan guruhi tarbiyachisining lavozim majburiyatlari**

- O'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga ko'maklashish;
- davlat ta'lim standarti va talablari, o'quv dasturlariga muvofiq tegishli fan bo'yicha darslar, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish;
- o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga tayyorlash;
- o'quvchilarning fanni o'zlashtirishini ta'minlash, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan guruhlarda va individual tartibda ish olib borish;
- o'quvchilarning yozma ishlarini hamda daftarlarini tekshirish;
- mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan tarqatma va ko'rgazma materiallarni ishlab chiqish;
- o'quvchilarning davomat va o'zlashtirish hisobini olib borish, ularning ta'lim muassasasi ustavi talablariga rioya qilishlarini ta'minlash;
- pedagogik kengash, o'quv-seminar, ochiq darslarda ishtirok etish;
- ota-onalar bilan farzandlarini tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha individual uchrashuvlar hamda suhbatlar o'tkazish;
- kasbiy mahoratini oshirib borish, o'z faoliyatiga oid ilg'or ta'lim metodlarini o'rganish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;
- ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;
- foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **13. Tarjimon-kotibaning lavozim majburiyatlari**

- Muassasada unga birlashtirilgan ko'zi o'qituvchilarning yillik ish rejasi va dars jadvali asosida ish yuritilishini ta'minlash;
- o'qituvchi bilan birga dars jarayonini tashkil etishda vakolati doirasida ishtirok etish;
- dars jarayonida o'quvchilarning davomatini aniqlash, sinf jurnaliga o'qituvchining ko'rsatmasiga asosan rejadagi mavzularni yozish va o'qituvchi tomonidan qo'yilgan kundalik va nazorat baholarini belgilangan tartibda qo'yib borish, bunda bevosita husnixat bilan bog'liq bo'lgan orfografik va imlo qoidalari rioya qilish;
- birlashtirilgan ko'zi o'qituvchining darsdan tashqari mashg'ulotlar va to'garak ishlarini olib borilishida ko'maklashish;
- joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlari, bosqichli va davlat attestatsiyasidagi imtihonlar o'tkazishda yordam berish;
- dars jarayonida o'quvchilarga tarqatiladigan tarqatma materiallarning o'quvchilarga tarqatilishida o'qituvchining so'rovi asosida yordamlashish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **14. Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari (xo'jalik mudiri)ning lavozim majburiyatlari**

Ta'lim muassasasi binolarining texnik holati, barcha moddiy boyliklar (inventarlar, turli o'quv ko'rgazmali jihozlar)ning saqlanishini ta'minlash;

ta'lim muassasasiga yetkazib berilayotgan jihozlarni belgilangan tartibda qabul qilish, jihozlarning to'g'ri taqsimlanishini amalga oshirish;

ta'lim muassasasidagi xo'jalik ishchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni nazorat qilish, har oyda ishchi xodimlarning ish vaqtini hisobga olish tabelini yuritish;

moddiy tovar boyliklarning aylanma qaydnomasini yuritish, muassasaga olib kelingan inventarlarni, xo'jalik va kanselyariya mollarini kirim qilish, ularni o'z vaqtida tarqatish, ro'yxatdan chiqarilgan moddiy boyliklarni chiqim qilish;

o'quv yili boshlangunga qadar barcha jihozlarni ta'mirlash, har bir sinf xonasini, fan kabinetlarini, laboratoriyalarni ta'mirlash, jihozlash, ularni yangi o'quv yiliga tayyorlash, ro'yxat bo'yicha jihozlar, mebellarni sinf rahbarlariga, kabinet mudirlariga, laboratoriya mudirlariga belgilangan tartibda (topshirish-qabul qilish dalolatnomalari tuzilgan holda) topshirish va o'quv yili yakunlanganda ularni butun holatda qabul qilib olish;

kommunal to'lovlar (gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi) bo'yicha hisoblagichlarning kundalik ko'rsatkichlarini olib, tahlil qilgan holda, byudjetdan ajratilgan mablag'lardan tejamkorlik bilan foydalanishni tashkil qilish;

telefon tarmoqlaridan foydalanishda, aloqaning uzluksizligini, sifatini nazorat qilish hamda aloqa buzilgan hollarda hududiy telefon tarmoqlari bo'linmalariga xabar berib, aloqani tiklash choralari ko'rish;

ta'lim muassasasining sanitariya holatini talablar darajasida bo'lishida farroshlar, binoni qo'riqlashda qorovullar, atrof-muhitni obodonlashtirishda texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ishini muvofiqlashtirish;

bir yilda bir marta jamoat komissiyasi bilan birgalikda moddiy boyliklarni turlari bo'yicha xatlov (inventarizatsiya)dan o'tkazish;

muassasada obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

kuz-qish mavsumida issiqlik tizimidan foydalanishda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga asosan issiqlik bosimining yetarli darajada bo'lishini, uning davomiyligini, issiqlik yetarli darajada bo'lmagan kunlarda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga ma'lum qilish hamda ushbu kunlarni ro'yxatga olib, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatiga issiqlik uchun to'lab beriladigan mablag'larni qayta hisob-kitob qilinishi haqida ogohlantirish;

kuz-qish mavsumiga muassasa binosi tommlarini, deraza va rommlarini, isitish tizimini, kanalizatsiya quvurlarini ta'mirlab, tayyor holga keltirilishini ta'minlash;

yakka tartibda isitiladigan ta'lim muassasalarida qattiq va suyuq yoqilg'i materiallarini qabul qilish va sifatli saqlash, ularni belgilangan miqdorlarda sarflash hamda isitish tizimini optimal darajada ishlashini ta'minlash;

yong'in xavfsizligi asboblarini yetarli darajada bo'lishini nazorat qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

- **"Oila – mahalla — ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga doir hujjatlar to'plami** (yuqori tashkilotlarning /shu jumladan xotin-qizlar bilan ishlash boshlang'ich tashkiloti/ hamkorlik rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan /tasdiqlangan/ ta'lim muassasasining tadbirlar rejasini, undagi tadbirlarning bajarilish yuzasidan tegishli hujjatlar);

- **o'quvchilar davomati va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga doir hujjatlar to'plami** (direktor o'rinbosari tomonidan umumlashtirilgan va tuman /shahar/ Maktabgacha va maktab ta'limi tuman bo'limiga taqdim etilgan davomat bo'yicha ma'lumotlar, muntazam va surunkali dars qoldiruvchi o'quvchilar va noqobil oila farzandlari bilan olib boriladigan tadbirlar rejasini, undagi tadbirlarning ijrosi yuzasidan hamda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to'garaklar faoliyati va ta'til kunlariga doir hujjatlar).

16. Direktor o'rinbosari faoliyat yo'nalishlari bo'yicha o'quv yili choraklari va yakuni bo'yicha hisobotlar tayyorlaydi hamda ta'lim muassasasi direktoriga topshiradi.

## **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

17. Maktabgacha va maktab ta'limi boshqaruv idoralari direktor o'rinbosari yordamidan faqat ushbu yo'riqnomada belgilangan vazifalar doirasida ta'lim muassasasi direktori bilan kelishilgan holda foydalanishi mumkin.

18. Mazkur yo'riqnoma talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

## **5. Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari Harbiy chaqiriqacha tayyorgarlik rahbarining lavozim majburiyatlari**

Harbiy ish asoslarini o'zlashtirish to'garagi faoliyatini harbiy-amaliy sport turlariga uzviy bog'lagan holda yuritish;

ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga hamda maktab ichki ro'yxatiga olingan o'quvchilarni darsdan keyingi fan to'garaklari hamda mashg'ulotlariga jalb qilish choralari ko'rish;

o'z kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, pedagogik va uslubiy ko'nikmalarini takomillashtirish;

ChQBT fani o'quv xonasiga rahbarlik qilish, shuningdek, qurol saqlash va otish tiri xonalarini nazorat qilish;

ta'lim muassasasi ixtiyoriga berilgan o'quv qurol-aslahalari hisobini belgilangan tartibda yuritish, ularning mavjudligi va texnik holatini doimiy ravishda shaxsan tekshirib borish, zarur hollarda ta'mirlanishi va hisobdan chiqarilishini tashkil etish, fan o'quv-moddiy bazasining soz holda saqlanishini ta'minlash;

harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi darsdan tashqari to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish;

o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini ta'lim muassasasi pedagoglar jamoasi bilan hamkorlikda amalga oshirish;

"14 yanvar — Vatan himoyachilari kuni"ni nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi bilan hamkorlikda ta'lim muassasasi miqyosida harbiy-sport musobaqalarini muntazam ravishda tashkil etish hamda o'tkazish;

ta'lim muassasasi o'quvchilarini harbiy-sport musobaqalari va fuqaro muhofazasi bo'yicha tuman (shahar) miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishlarini tashkil etish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yozgi ta'til davrida ularning "Yosh qutqaruvchi", "Yosh chegarachilar", "Yosh o't o'chiruvchi", "Yosh gvardiyachi" hamda "Yashil chiroq" va bundan tashqari barcha harbiy-sport musobaqalari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

ChQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarning sifatini oshirish maqsadida ta'lim muassasasiga birlashtirilgan harbiy qism va muassasalar bilan hamkorlik qilish, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish istagini bildirgan o'quvchilarni tanlash va tayyorlash ishlarida mudofaa ishlari bo'limiga yaqindan yordam berish;

ta'lim muassasasining bitiruvchi sinf va kurslarida tahsil olayotgan o'quvchi o'g'il bolalarni mudofaa ishlari bo'limlarida tashkil etiladigan chaqiruv uchastkalarida qayd etilishi tadbirlarini amalga oshirish;

kundalik ish faoliyatini dars jadvali, darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan asosiy tadbirlarni ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadigan shaxsiy ish rejasi asosida o'tkazish;

ta'lim muassasasidagi "Vatan tayanchi" otryadi faoliyatini tashkil etish hamda ushbu otryadga rahbarlik qilish, "Yo'l harakati qoidalari yosh targ'ibotchisi" klubi faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

o'quv yili yakunida yillik o'quv dasturi ijrosi yuzasidan ta'lim muassasasi kuzatuv kengashiga hisobot berish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 6. O'qituvchining lavozim majburiyatlari

Pedagogik xodimga belgilangan ish yuklamasini, jumladan, o'quv-tarbiya jarayoni, o'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonlarga oid ishlarni o'z vaqtida bajarish;

dars mashg'ulotlarini umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan dars jadvali hamda taqvim-mavzu reja asosida olib borish;

ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'z fani bo'yicha tarqatma va ko'rgazmali materiallarni tayyorlaydi (markazlashgan holda, jumladan vazirlik tomonidan taqdim yoki tavsiya etiladigan ta'lim portallarida elektron shakldagi tarqatma va ko'rgazmali materiallar bo'lmasa) va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish;

o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish;

o'quvchilarda o'z fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, dars jarayonida o'quvchilarning odob-axloq qoidalariga rioya qilishini ta'minlash;

o'z fani bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini o'tkazadi, o'quvchilarning yozma ishlari va daftarlarini tekshirish;

umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlariga muvofiq o'z fani bo'yicha taqvim-mavzu rejalarni tuzish;

o'z ehtiyojiga ko'ra fan o'qituvchilari tomonidan o'tiladigan darslarni kuzatish, dars tahlili natijasida o'zaro tajriba almashish;

pedagogik kengash, metodbirlashma yig'ilishlari, o'quv-seminar, ochiq darslar va metodik materiallar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'z fani bo'yicha taqvim-mavzu reja asosida o'tilgan mavzularni, o'quvchilarning o'tilgan mavzularni o'zlashtirish bahosini va davomatini dars o'tilgan kunning o'zida elektron jurnalga qayd etish (bunda elektron jurnal joriy etilgan umumta'lim muassasalarida an'anaviy jurnalga baholashga yo'l qo'yilmaydi hamda elektron avtomatik davomat joriy qilingan maktablarda davomatni qayd etish o'qituvchining vazifasiga kirmaydi);

o'quvchilarning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida o'z fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish;

o'quvchilarni o'z fani bo'yicha fanlar olimpiadalari, turli tanlovlar va musobaqalarga tayyorlash;

o'z fani bo'yicha belgilangan metodik kunda o'zining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlash, ilg'or ta'lim metodlarini o'rganish va doimiy ravishda malakasini oshirib borish choralarini ko'rish;

o'ziga birlashtirilgan sinf xonalari, laboratoriya xonalaridagi qurilmalar, texnik vositalar, boshqa moddiy boyliklarning saqlanishini va ulardan o'quv-metodik maqsadlarda samarali foydalanishni ta'minlash;

ta'lim muassasasi rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga amal qilish;

o'quvchilar huquqlariga va bolalarni muhofaza qilishga oid qonunchilik talablariga rioya qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **7. O'qituvchi-logopedning lavozim majburiyatlari**

O'quvchilarning nutqini rivojlanishidagi muammolarni tuzatishga qaratilgan ishlarni olib borish, ularni tekshirish orqali mavjud bo'lgan nuqson tarkibi va ifodalanish darajasini aniqlash;

1-4-sinf o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish;

murakkab nutq nuqsoniga ega bo'lgan, jismoniy va psixik rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borish;

mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning nutq a'zolarini tizimli ravishda kuzatib borish;

o'quvchining o'quv dasturlarini ongli ravishda tanlashi va o'zlashtirishiga ko'maklashish;

o'quvchilar nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir logopedik bilimlarni ta'lim jarayoni ishtirokchilari, o'qituvchilar va aholi o'rtasida targ'ib qilish;

ularning ruhiy-jismoniy holatini hisobga olgan holda mashg'ulotlar o'tkazish uchun guruhlar tashkil qilish, guruhlarda va individual tartibda ularning rivojlanishidagi muammolarni tuzatish, nosoz funksiyalarni tuzatish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

o'qituvchilar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, mashg'ulot va darslarida ishtirok etish, pedagog xodimlar va ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ga nutqiy rivojlanishida muammosi mavjud bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatishning maxsus metodlari va usullarini qo'llash bo'yicha maslahatlar berish hamda ular faoliyati bilan bog'liq zaruriy hujjatlarni yuritish;

shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirishda, uning ijtimoiylashishida kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va o'zlashtirishda ko'maklashish, davlat standartlari doirasida ta'lim berishning turli shakllari, metodlari va vositalarini qo'llash, ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

o'quvchilarni Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan huquqlarga rioya qilish va erkinliklarini ta'minlash;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib boradi, metodik uyushmalar faoliyatida va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

ta'lim jarayonida o'quvchilarning hayotini va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga ko'maklashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **8. Psixologning lavozim majburiyatlari**

O'quvchilarni muassasalarda tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish;

“Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta'lim muassasasi ijtimoiy sohasini uyg'unlashtirishga ko'maklashish va ijtimoiy jihatdan ko'nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

o'quvchilar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, reabilitatsiya va konsultatsiya) berish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi, o'quvchilar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), pedagogik jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordamlashish;

turli yo'nalish va maqsadlarda psixologik diagnostika o'tkazish, ruhiy, jismoniy va aqliy qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o'tkazish, test natijalarini tahlil qilish va baholash;

bola ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, bu borada tegishli davlat idoralari bilan hamkorlik ishlarini olib borish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;

o'quvchilar shaxsining individual yosh xususiyatlari, jinsini hisobga olib ta'lim faoliyatining rivojlantiruvchi va tuzatuvchi dasturlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda hayotiy va kasbga yo'nalish olishning turli vaziyatlariga moslashuvchanlikka tayyorgarlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni to'liq qamrab olinishi bo'yicha ish olib borish hamda 7-sinfdan interaktiv so'rovnomalar o'tkazish va shu asosda kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma'lumotlar bazasi yaratish;

emotsional-hissiy zo'riqishlar, xavotirlik darajasi yuqori va o'ziga ishonchi past bo'lgan bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida seminar-treninglar hamda soha mutaxassislari bilan davra suhbatlarini tashkil etish, shuningdek, kasbiy moyilligi bo'yicha professional ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish;

maktab bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yuzasidan o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni, ota-onalar va pedagoglar to'liq qamrab olingani va o'quvchi-yoshlar o'rtasida deviant xulq atvor ko'rinishlarining (zo'ravonlik, o'z joniga qasd qilish, erta tug'ruq) oldini olish;

iqtidorli o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi va izlanishlariga ko'maklashish;

o'quvchilarning rivojlanishidagi (aqliy, jismoniy, hissiy), turli ko'rinishdagi ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni psixologik-pedagogik jihatdan tuzatishni amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sogʻlom psixologik muhitni yaratish va qoʻllab-quvvatlash, jamoa aʼzolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish boʻyicha ishlarni olib borish;

oʻquvchilarning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini oʻrganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun amaliy yordam koʻrsatish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internet jahon axborot tarmogʻining salbiy taʼsiri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni oʻtkazish;

pedagog xodimlar, oʻquvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga koʻmaklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ishlarini olib borish;

oʻqituvchilar jamoasi va ota-onalarga oʻquvchilarning shaxs va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi muammolari boʻyicha yoʻnalish berish maqsadida oʻrganish natijalariga koʻra psixologik-pedagogik xulosa tayyorlash;

taʼlim muassasasi xodimlarini oʻquvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar (ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar) ijtimoiy-psixologik xabardorlik darajasini oshirishga yoʻnaltirilgan psixologiyani amalda qoʻllash, muassasaning rivojlanishi masalalarida maslahatlar berish;

oʻz kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish va boshqa koʻrinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining shaʼni, qadr-qimmatini va ishchanlik obroʻsini hurmat qilish;

taʼlim muassasa obroʻsi va shaʼniga putur yetkazishi mumkin boʻlgan maʼlumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan maʼlumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

taʼlim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya — gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongʻin xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun oʻziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda oʻzi ish olib boradigan xonada yongʻin xavfsizligi talablariga rioya qilinishini taʼminlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **9. Ayrim fanlar chuqur oʻrganiladigan ixtisoslashtirilgan umumtaʼlim muassasalari tarbiyachisining lavozim majburiyatlari**

Biriktirilgan guruh boʻyicha oʻquvchilarda inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasi, oʻzi va atrofdagilarga hamda jamiyatga ijobiy munosabat shakllantirish, mavjud qonunlarga, mehnatga, ota-onalarga, maʼnaviy, tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

oʻquvchilarda ijtimoiy faollik, bilishga intilish va oʻzini namoyon qilish motivlarining, oʻzini-oʻzi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga koʻmaklashish;

oʻquvchilarning individual xususiyatlari va qiziqishlarini, oilaviy sharoitlarini muntazam oʻrganib borish hamda ularni qiynayotgan muammolarni bartaraf etish borasida pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish;

muassasa direktori tomonidan tasdiqlangan kun tartibi asosida oʻquvchilar bilan ish olib borish (ovqatlanish, darslarga tayyorgarlik, yotoqxonada tartib-intizom qoidalariga rioya qilish va hokazolarni nazorat qilish);

o'quvchilarning yashash sharoitlarini yaxshilash, bilim olish samaradorligini oshirish uchun maktab-internati ma'muriyati va fan o'qituvchilariga takliflar kiritish;

maktab-internatining tibbiyot xodimi bilan birgalikda o'quvchilarning salomatligi bilan yaqindan tanishish, ularning maktab-internatda yashash sharoitlarini yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqalar o'rnatish va farzandining ta'lim-tarbiyasini yana-da yaxshilash yuzasidan fikrlar almashish, taklif va tavsiyalar berish;

o'quvchilar davomatini ta'minlash choralari ko'rish;

o'quvchilarning ovqatlanishini tashkil etishda ko'maklashish;

o'quvchilar bilan yo'l harakati va texnika xavfsizligi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, ijtimoiy hayot uchun maqbul bo'lmagan xatti-harakatlar qilishdan saqlanish bo'yicha suhbatlar o'tkazib, tushuntirish ishlarini olib borish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **10. Kutubxona mudirining lavozim majburiyatlari**

Umumta'lim muassasalarida ta'lim tili, sinflar va o'quv fanlari kesimida darsliklar va o'quv-metodik majmualarga bo'lgan ehtiyojini o'rganib, ularga buyurtma berilishini tashkil etish;

kutubxonada darsliklar va o'quv-metodik majmualarning inventarizatsiyasini o'tkazadi va ular asosida yetishmayotgan darsliklar bo'yicha maktab direktor orqali tuman (shahar) bo'limiga takliflar kiritish;

yangi o'quv yiliga "Transport va logistika" davlat unitar korxonasi hududiy filiallari tomonidan olib kelinadigan har bir darsliklar va o'quv-metodik majmualarni o'rnatilgan tartibda qabul qilish, darsliklar va o'quv-metodik majmualarni qabul qilish bo'yicha maktabda tashkil etiladigan komissiyada ishtirok etish, Adliya vazirligidan 2014-yil 28-aprelda 2577-son raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish;

xatlov natijasida ta'lim muassasasida yaroqsiz holga kelgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni utilizatsiya qilish bo'yicha rejasini tayyorlash, o'rnatilgan tartibda tasdiqlatish hamda umumlashtirish uchun tuman (shahar) bo'limiga taqdim etish;

tasdiqlangan reja asosida utilizatsiya qilinadigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni "Transport va logistika" davlat unitar korxonasi hududiy filialiga topshirish;

Vazirlikning tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Kitobxonlar bayrami" tadbiri doirasida ("Adabiyot kunlari", "Kitobim oftobim", "Kitob taqdimoti" nomli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Yilning eng yaxshi kitobxon maktabi" tanlovi, "Maktab-

kutubxona-oila-jamoat tashkilotlari” xayriya tadbiri va ota-onalar o‘rtasida “Bir farzandga-uch kitob” aksiyasi, “Men sevgan adabiy qahramon”, “Yil hikoyasi”, “Yosh kitobxonlar”, “Yilning eng iste’dodli yosh shoiri”) tanlovlarining maktab bosqichini tashkil etish;

5 ta tashabbus doirasida o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni kuchaytirish yo‘nalishida tegishli mas’ullar bilan hamkorlik qilish;

faoliyat yo‘nalishiga oid turli anjuman, konferensiyalar, o‘quvlar, ko‘rik-tanlovlar, avgust kengashlari, ilmiy-amaliy yig‘ilishlarda ishtirok etish;

o‘quvchilar, o‘qituvchilar va tashkilotning boshqa xodimlarini kutubxonaga a‘zo qiladi va kitobxonlarga berilgan kitoblar ustidan nazoratni ta‘minlash;

kutubxonada va saqlash xonalarida xavfsizlik texnikasi, sanitariya, yong‘inga qarshi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini kuzatib boradi va barcha turdagi kutubxona jamg‘armasida saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

maktab kutubxonalari uchun kutubxona–bibliografik klassifikatsiyasiga muvofiq hujjatlarning sistemali-alifboli joylashtirilishini ta‘minlash;

kutubxona jamg‘armasini tokchali va harfli ajratkichlar, tokchali va stendli ko‘rgazmalar yordamida rasmiylashtirish;

kutubxonaning kitob va boshqa jamg‘armalariga kitobxonlarning (foydalanuvchilarning) aybi bilan va kitoblar kamomadi, ularni yo‘qotish yoki buzish bilan bog‘liq yetkazilgan zararni o‘rnatilgan tartibda undirib olish choralarini ko‘rish;

umumta‘lim maktablarini badiiy adabiyotlar, darsliklar va o‘quv-metodik majmualar bilan ta‘minlash borasida ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish;

darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining kutubxona jamg‘armasiga qabul qilish va hisobdan chiqarish, kitoblarining sifatli va to‘g‘ri yuritilishini amalga oshirish;

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sini hurmat qilish;

ta‘lim muassasa obro‘si va sha‘niga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma‘lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta‘lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **Kutubxonachining lavozim majburiyatlari**

Ta‘lim muassasasida o‘quvchi va o‘qituvchilarning ta‘lim tili, sinflar va o‘quv fanlari kesimida darsliklar va o‘quv-metodik majmualarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish;

darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning inventarizatsiyasini o‘tkazish va ular asosida yetishmayotgan darsliklar ro‘yxatini shakllantirish;

yangi o‘quv yiliga “Transport va logistika” davlat unitar korxonasi hududiy filiallari tomonidan olib kelinadigan har bir darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni o‘rnatilgan tartibda qabul qilish, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha maktabda tashkil etiladigan komissiyada ishtirok etish, Adliya vazirligidan 2014-yil 28-aprelda 2577-son raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini darsliklar va o‘quv-metodik



majmualar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etish;

xatlov natijasi asosida ta'lim muassasasida yaroqsiz holga kelgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni utilizatsiya qilish bo'yicha rejasini tayyorlash, kutubxona mudiriga taqdim etish;

5 ta tashabbus doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlar o'rtasida kitobxonlikni kuchaytirish yo'nalishida tegishli mas'ullar bilan hamkorlik qilish;

faoliyat yo'nalishiga oid turli anjuman, konferensiyalar, o'quvlar, ko'rik-tanlovlar, avgust kengashlari, ilmiy-amaliy yig'ilishlarda ishtirok etish;

o'quvchilar, o'qituvchilar, muassasaning boshqa xodimlarini kutubxonaga a'zo qilish va kitobxonlarga berilgan hujjatlar ustidan nazoratni ta'minlash;

kutubxonada va saqlash xonalarida xavfsizlik texnikasi, sanitariya, yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini kuzatib borish va kutubxona jamg'armasi saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

maktab kutubxonalari uchun kutubxona–bibliografik klassifikatsiyasiga muvofiq hujjatlarning sistemali-alifboli joylashtirilishini ta'minlash;

umumta'lim maktablarini badiiy adabiyotlar, darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash borasida ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish;

darsliklar va o'quv-metodik majmualarni ta'lim muassasasining kutubxona jamg'armasiga qabul qilish va hisobdan chiqarish kitoblarini to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **11. Kadrlar bo'yicha inspektor (menejer)ning lavozim majburiyatlari**

Ta'lim muassasasida xodimlar shaxsiy tarkibining hisobini yuritish;

mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarning shaxsiy tarkibi bo'yicha buyruqlarni (ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish, mehnat shartnomasini bekor qilish, mehnat ta'tili berish va h.k.) rasmiylashtirish va ularning belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlash;

xodimlarni muassasaning ichki mehnat tartibi qoidalari bilan tanishtirish;

xodimlarning shaxsiy ish jildlarini (T-2 kartochkalar, mehnat daftarchalari, mehnat shartnomalari va h.k.) shakllantirish va yuritish, ularga o'z vaqtida xodimlarning faoliyati bilan bog'liq o'zgartirishlarni kiritish;

xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga, shuningdek, vazirlikning elektron ma'lumotlar bazasiga sifatli kiritilishi va o'z vaqtida yangilab borilishini ta'minlash, mehnat daftarchalari yuritilishi, hisobga olinishi va saqlanishini ta'minlash;

bo'sh (vakant) ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar haqida ish.mehnat.uz hamda vazirlikning ish.uzedu.uz sayti orqali e'lon berish;

xodimlarga ta'til berish hisobini yuritish, ta'tillar jadvalini tuzish;

ta'lim muassasa xodimlariga pensiyalar tayinlash, imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilash uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

xodimlarning qo'nimsizligi sabablarini o'rganish, uni pasaytirish bo'yicha muassasa direktoriga takliflar kiritish;

kadrlarga oid hujjatlarni belgilangan joriy saqlash muddatlari tugagach, uni doimiy saqlash uchun arxivga topshirish tayyorlash;

ta'lim muassasasida mehnat intizomining holati va xodimlar tomonidan ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, mehnat intizomi buzilishlarining hisobini yuritish;

ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini jalb etish choralarini ko'rish yuzasidan turli tadbirlarda ish beruvchi vakili sifatida ishtirok etish;

maktab direktorining ko'rsatmasi asosida ish faoliyati davomida erishib kelayotgan yutuqlari uchun pedagoglar tarkibidan O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlari va vazirlikning tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash bo'yicha nomzodlarning hujjatlarini tayyorlash, o'rnatilgan tartibda tuman (shahar) bo'limiga taqdim etilishini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kadrlar bo'yicha menejer (inspektor) o'z majburiyatlarini samarali bajarish maqsadida boshqa bo'linmalar (xodimlar)dan tegishli ma'lumot va axborotlarni so'rab olish huquqiga ega.

Kadrlar bo'yicha menejer (inspektor)ga ushbu lavozim majburiyatlariga daxldor bo'lmagan boshqa vazifa va funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## **12. Uzaytirilgan kun guruhi tarbiyachisining lavozim majburiyatlari**

O'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning ehtiyojidan kelib chiqib, bolalarning ta'lim-tarbiyasiga ko'maklashish;

umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlariga muvofiq tegishli fan bo'yicha darslar, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish;

o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga tayyorlash;

o'quvchilarning fanni o'zlashtirishini ta'minlash, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan guruhlarda va individual tartibda ish olib borish;

joriy va nazorat so'rovi o'tkazish, o'quvchilarning yozma ishlarini hamda daftarlarini tekshirish;

mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan tarqatma va ko'rgazma materiallarni ishlab chiqish;

o'quvchilarning davomat va o'zlashtirish hisobini olib borish, ularning maktab ustavi talablariga rioya qilishlarini ta'minlash;

pedagogik kengash, o'quv-seminar, ochiq darslarda ishtirok etish;

ota-onalar bilan farzandlarini tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha individual uchrashuvlar hamda suhbatlar o'tkazish;

kasbiy mahoratini oshirib borish, o'z faoliyatiga oid ilg'or ta'lim metodlarini o'rganish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **13. Laborantning lavozim majburiyatlari**

Tegishli fan (kimyo, biologiya, fizika) xonasining mavjud laboratoriya asbob-uskunalarini, o'quv jihozlarini yaxshi holatda saqlanishini ta'minlash;

laboratoriya mashg'ulotiga jihozlarini tayyorlash va ulardan foydalanish uchun texnik tayyorgarlik ko'rish;

laboratoriya mashg'ulotlariga tegishli preparatlarni to'g'ri saqlanishini va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash;

tegishli fan o'qituvchisidan zarur bo'lgan ma'lumotlar va materiallarni olgan holda darslarga o'quv jihozlarini o'z vaqtida tayyorlash;

zarur ro'yxat, shuningdek laboratoriya va ko'rgazmali mashg'ulotlarga oid o'quv jihozlarini darsga tayyorlash;

mashg'ulot jarayonida belgilangan tartib qoidalarga amal qilmagan o'quvchilar to'g'risida tegishli fan o'qituvchisiga va maktab rahbariyatiga axborot berish;

o'qituvchilardan qurilmalarni qabul qilish va laboratoriya xonasini amaliy mashg'ulotdan so'ng tozalash;

laboratoriya mashg'ulotlari uchun sarflangan moddalar (reaktivlar va boshqalar)ni hisobini olib borish daftarini yuritish;

laboratoriya va ko'rgazmali mashg'ulotlarida o'qituvchi yordamchisi sifatida dars jarayonida qatnashish;

laboratoriya va ko'rgazmali mashg'ulotlari oxirida barcha javonlarning yopilishini ta'minlash, suv jo'mraklarini tekshirish va barcha elektr asboblarini o'chirish;

laboratoriya mashg'uloti davomida nosoz holatga kelgan moslamalar, asboblar, texnik o'quv vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

o'quvchilarni laboratoriya o'quv jihozlari va moddalar (reaktiv va boshqalar)dan foydalanish bo'yicha xavfsizlik va gigiyena qoidalari bilan tanishtirish va ularning qat'iy amal qilishini nazorat qilish;

elektr jihozlari, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini elektrik va boshqa texnik xodimlar bilan birgalikda tekshirish, shamollatish tizimining ish holatini kuzatib borish;

laboratoriya o'quv jihozlari va moddalar (reaktiv va boshqalar)ni xatlovdan o'tkazishda ishtirok etish;

tegishli fan (kimyo, biologiya, fizika) xonasining sarflangan moddalar (reaktiv va boshqalar) va materiallar, yaroqsiz holga kelgan qurilmalar, laboratoriya anjomlari va boshqalarni hisobga olgan holda o'quv jihozlari buyumlariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va talabnoma tayyorlash;

tegishli fan (kimyo, biologiya, fizika) xonasiga oid asbob-uskunalar va boshqa moddiy boyliklarning buyumlarini hisobdan chiqarish ishlarida qatnashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **14. Tarjimon-kotibaning lavozim majburiyatlari**

Muassasada unga biriktirilgan ko'zi ojiz o'qituvchilarning yillik ish rejasi va dars jadvali asosida ish yuritilishini ta'minlash;

o'qituvchi bilan birga dars jarayonini tashkil etishda vakolati doirasida ishtirok etish;

dars jarayonida o'quvchilarning davomatini aniqlash, sinf jurnaliga o'qituvchining ko'rsatmasiga asosan rejadagi mavzularni yozish va o'qituvchi tomonidan qo'yilgan kundalik va nazorat baholarini belgilangan tartibda qo'yib borish, bunda bevosita husnixat bilan bog'liq bo'lgan orfografik va imlo qoidalari rioya qilish;

biriktirilgan ko'zi ojiz o'qituvchining darsdan tashqari mashg'ulotlar va to'garak ishlarini olib borilishida ko'maklashish;

joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlari, bosqichli va davlat attestatsiyasidagi imtihonlar o'tkazishda yordam berish;

dars jarayonida o'quvchilarga tarqatiladigan tarqatma materiallarning o'quvchilarga tarqatilishida o'qituvchining so'rovi asosida yordamlashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **15. Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari (xo'jalik mudiri)ning lavozim majburiyatlari**

Ta'lim muassasasi binolarining texnik holati, barcha moddiy boyliklar (inventarlar, turli o'quv ko'rgazmali jihozlarning)ning saqlanishini ta'minlash;

maktabga yetkazib berilayotgan jihozlarni belgilangan tartibda qabul qilish, jihozlarning to'g'ri taqsimlanishini amalga oshirish;

ta'lim muassasasidagi xo'jalik ishchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni nazorat qilish, har oyda ishchi xodimlarning ish vaqtini hisobga olish tabelini yuritish;

moddiy tovar boyliklarning aylanma qaydnomasini yuritish, muassasaga olib kelingan inventarlarni, xo'jalik va kanselyariya mollarini kirim qilish, ularni o'z vaqtida tarqatish, ro'yxatdan chiqarilgan moddiy boyliklarni chiqim qilish;

o'quv yili boshlangunga qadar barcha jihozlarni ta'mirlash, har bir sinf xonasini, fan kabinetlarini, laboratoriyalarni ta'mirlash, jihozlash, ularni yangi o'quv yiliga tayyorlash, ro'yxat bo'yicha jihozlar, mebellarni sinf rahbarlariga, kabinet mudirlariga, laboratoriya mudirlariga belgilangan tartibda (topshirish-qabul qilish dalolatnomalari tuzilgan holda) topshirish va o'quv yili yakunlanganda ularni butun holatda qabul qilib olish;

kommunal to'lovlar (gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi) bo'yicha hisoblagichlarning kundalik ko'rsatkichlarini olib, tahlil qilgan holda, byudjetdan ajratilgan mablag'lardan tejamkorlik bilan foydalanishni tashkil qilish;

telefon tarmoqlaridan foydalanishda, aloqaning uzluksizligini, sifatini nazorat qilish hamda aloqa buzilgan hollarda hududiy telefon tarmoqlari bo'linmalariga xabar berib, aloqani tiklash choralari ko'rish;

ta'lim muassasasining sanitariya holatini talablar darajasida bo'lishida farroshlar, binoni qo'riqlashda qorovullar, atrof-muhitni obodonlashtirishda texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ishini muvofiqlashtirish;

bir yilda bir marta jamoat komissiyasi bilan birgalikda moddiy boyliklarni turlari bo'yicha xatlov (inventarizatsiya)dan o'tkazish;

muassasada obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

kuz-qish mavsumida issiqlik tizimidan foydalanishda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga asosan issiqlik bosimining yetarli darajada bo'lishini, uning davomiyligini, issiqlik yetarli darajada bo'lmagan kunlarda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga ma'lum qilish hamda ushbu kunlarni ro'yxatga olib, tuman (shahar) bo'limlarning markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatiga issiqlik uchun to'lab beriladigan mablag'larni qayta hisob-kitob qilinishi haqida ogohlantirish;

kuz-qish mavsumiga muassasa binosi tomlarini, deraza va romlarini, isitish tizimini, kanalizatsiya quvurlarini ta'mirlab, tayyor holga keltirilishini ta'minlash;

yakka tartibda isitiladigan ta'lim muassasalarida qattiq va suyuq yoqilg'i materiallarini qabul qilish va sifatli saqlash, ularni belgilangan miqdorlarda sarflash hamda isitish tizimini optimal darajada ishlashini ta'minlash;

yong'in xavfsizligi asboblari yetarli darajada bo'lishini nazorat qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2023-yil 20 - dekabrda  
565-sonli buyrug‘iga  
38-ILOVA

**O‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan maktabgacha va maktab ta’limi  
tizimiga oid ayrim buyruqlar  
RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 1-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bino inshotlarini ekspluatatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28-sonli buyrug‘i;

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 1-iyuldagi “Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari xodimlarining lavozim majburiyatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 206-sonli buyrug‘i;

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari nizomlari va xodimlar lavozim yo‘riqnomalarining yangi tahririni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 105-sonli buyrug‘i;

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 13-apreldagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati hamda hududiy bo‘linmalari nizomi hamda xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 88-sonli buyrug‘i.